



O'zbekiston Respublikasi
Ichki ishlar vazirligi nashri

Vatanga va xalqqa sadoqat bilan xizmat qilish – oliy burchimiz!

Postda Ha nocty

2023-yil
7-sentabr
payshanba

№ 36 (4626)

Gazeta 1930-yil 12-maydan chiqa boshlagan /

Web-site: www.postda.uz /

E-mail: info@postda.uz

BILIM CHO'QQILARIN ZABT ETIB



Mamlakatimizdagi barcha ta'lim muassasalari kabi, IIV Ixtisoslashtirilgan maktab-internati o'quvchilari yozgi ta'tildan so'ng yangi o'quv yilini zo'r ishtiyok bilan boshlashdi.

Ma'lumot o'rnida aytish mumkinki, 2022–2023-o'quv yilida maktab-internatning 48 nafar bitiruvchisidan 7 nafari imtiyozli shahodatnomaga ega bo'ldi. Shuningdek, 38 nafari IIV akademik litseylariga, 5 nafari «Temurbeklar maktabi» harbiy akademik litseyiga, yana 5 nafari esa boshqa litseylarga o'qishga kirdi.

Bilim va malakalarni baholash agentligi tomonidan tashkil etilgan xorijiy tillarni bilish darajasi bo'yicha imtihonda 23 nafar bitiruvchi V1, V2 va S1 darajali sertifikatlariga ega bo'lgan bo'lsa, 2 nafari xalqaro IELTS imtihonini topshirib, yuqori ballarni qo'lga kiritdi.





Сифатли таълим – тараққиёт пойдевори

ЮРТГА ДАХЛДОРЛИК ТУЙҒУСИ

Юртимиз шаҳару қишлоқларида шонли истиқлолимиз шодиёналари шуқуҳи кезиб юрган паллаларда илм-маърифат маёғини баланд тутган, ишончимиз, умидимиз бўлган ёшлар таълим муассасаларида янги ўқув йилини бошлади-лар. Уларнинг билим-тафаккури, интеллектуал салоҳияти, нурли истиқболи мамлакатимиз тараққиётининг асосий кафолатидир.



ИИВ Академиясида юрт тинчлиги, осойишталигини кўз қорачиғидек асраш йўлида ички ишлар органлари-дек масъулияти оғир, аммо шарафли касб сирларини эгаллашни мақсад қилган курсантлар ҳам она Ватанимиз ва халқимизга содиқ бўлишга қасамёд қилдилар.

Ҳуқуқ-тартибот органлари раҳбарлари ва кенг жамоатчилик иштирок этган тадбирда Ички ишлар вазири, генерал-лейтенант Пўлат Бобоҷонов «Янги ҳаёт учун, янги Ўзбекистон учун!» ши-

ори остида нишонланаётган энг улуғ, энг азиз айём – мустақиллигимизнинг ўттиз икки йиллиги билан самимий муборакбод этиб, Президентимиз бошчилигида «Инсон қадрини учун» деган эзгу тамойил асосида амалга оширилаётган ислохотлар тараққиёт йўлимизни янги босқичга олиб чиқиш, халқимизнинг турмуш фаровонлигини юксалтириш, жамиятда ҳуқуқ-тартиботни мустаҳкамлаш, фуқароларнинг ҳуқуқ ва қонуний манфаатларини таъминлашда

мустаҳкам пойдевор бўлаётганини таъкидлаб ўтди.

Таъкидлаш жоизки, жорий йилда ИИВ Академиясига бакалаврият таълим йўналиши кундузги таълим шакли бўйича давлат гранти асосида 705 нафар, тўлов-контракт асосида 200 нафар, жами 905 нафар курсантлар қабул қилинди. Эндиликда сиртки, магистратура таълим йўналишларида ҳам ўқув жараёнлари бошланади.



Давлатимиз раҳбарининг жорий йил 18 августдаги «Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлиги Академиясида хорижий давлатлар ички ишлар органлари (полиция) кадрларини тайёрлаш, қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш тизимини жорий этиш тўғрисида»ги қарорига кўра, 2024/2025 ўқув йилидан Ички ишлар вазирлиги Академиясида хорижий давлатлар ички ишлар органлари (полиция) кадрларини тайёрлаш, қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш тизими йўлга қўйилади. Шунингдек, Академияда Хорижий кадрлар билан ишлаш факультети ташкил этилади. Қарор асосида тасдиқланган низомга мувофиқ, Академияда хорижий кадрларга таълим бериш икки ва кўп томонлама халқаро шарт-

номаларга мувофиқ амалга оширилади.

– Ўғлимнинг курсантлар сафига қабул қилингани мени ғоят шодлантирди, – дейди Ҳуринисо Қаршибоева. – Бугун унинг қасамёд қилганини кўриб, фахрландим. Ёшлар камолоти йўлида қилинаётган ишлар ўз самарасини кўрсатаётганига яна бир бор амин бўлдим.

Шу кунги ўқишдаги ютуқлари билан тенгдошларига намуна бўлаётган бир гуруҳ иқтидорли курсантлар Ички ишлар вазири ҳамда Жалолиддин Мангуберди номидаги стипендияларга сазовор бўлди. Саф майдонни узра янграган қўшиқлар ёшлар қалбида ватанпарварлик, фидойилик, юртга дахлдорлик туйғуларини жўш урдирди.

Ўз мухбиримиз.



Махсус олимпиада

КАНИСТЕРАПИЯ

ЁХУД «ИТЛАР ЁРДАМИДА ДАВОЛАШ» УСУЛИ

Самарқандда ҳар йили ақлий имконияти чекланган шахслар, жумладан, болаларни бирлаштирадиган махсус олимпиада бўлиб ўтади. Вилоят ИИБ ЖХХ ЖТСБ Кинология бўлинмаси хизмат-қидирув итларини сақлаш питомниги кинологлари ушбу махсус олимпиада меҳмони бўлишди.

Тадбир доирасида хизмат итлари турли овозли ва имо-ишорали буйруқларни бажарди, қўлга олиш жараёнларини намойиш этиб, буюм орқали эгасини топишга ҳаракат қилди. Болалар жониворларнинг ҳаракатларини завқ-шавқ билан қузатишди.

– Қизимда «Бинго»нинг ҳаракатлари яхши таассурот қолдирди ва бу ҳақда тўлиб-тошиб гапириб берди, – дейди Барно Тағиеванинг онаси ўз таассуротлари билан ўртоқлашаркан. – Мен хизмат ити билан мулоқот болага бу қадар фойдали бўлишини тасаввур қилмагандим. Шу боис кинологларга ушбу хайрли ташаббус учун миннатдорлик билдираман.

– Бу Даун синдроми бўлган болалар билан илк учрашувимиз, – дейди кинология хизмати кичик сержанти Жаҳонгир Шокиров. – Энди ҳар якшанба кунини болалар хизмат итлари билан вақт ўтказиши мумкин. Бу ўзига хос канистерапия, яъни, «итлар ёрдамида даволаш» дегани. Мазкур таъсир қилиш усули уй ҳайвони билан мулоқот қилиш, у билан ўйнашни бошлаган боланинг ривожланишида ёрдам берувчи ўзига хос усул ҳисобланади.

Мутахассисларнинг айтишича, канистерапия кўпинча ақлий ва ҳиссий қобилиятларни ривожлантиришга хизмат қиладиган, ҳаракат функциялари ва моторикани яхшилайдиган психотерапевтик усул



сифатида қўлланилади. Тўрт оёқли жониворлар билан мулоқот хавотир ва кўркунни камайтиради, умумий мослашувчанликни оширади ва шу орқали аутизмни даволашга хизмат қилади.

Махсус олимпиада доирасидаги учрашув болаларга яна бир бор

ижобий ҳислар бахш этиб, уларда итлар чиндан ҳам ғамхўрлик қилиш керак бўлган ёрдамчи ва дўст экани ҳақида тушунча ҳосил қилди.

Замира БОЛТАЕВА,
Ўз мухбиримиз.

Самарқанд вилояти.





Юксак мукофот соҳиблари



ЖАСОРАТЛИ УМР

Мамлакатимиз мустақиллигининг 32 йиллиги арафасида бир гуруҳ фидойи юртдошларимиз қаторида Асака туманидаги кўзи ожиз ва заиф кўрувчи болалар учун ихтисослаштирилган «Нурли маскан» мактаб-интернатининг тарих фани ўқитувчиси Фармон Алиев «Жасорат» медали билан мукофотланди.

Хонободлик Фармон кўзи заиф бўлиб туғилди. 1966 йилда у Асакадаги кўзи ожиз ва заиф кўрувчи болалар мактаб-интернатига қабул қилинди. Таълим муассасасини битиргач, биринчи гуруҳ ногирони бўлишига қарамай интилишдан, билим олишдан тўхтамади. Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика институтига ўқишга кирди.

Олий таълим муассасасини тамомлаган Фармон Алиев ўзи таҳсил олган Асака туманидаги кўзи ожиз ва заиф кўрувчи болалар учун ихтисослаштирилган мактаб-интернатига тарих фани ўқитувчиси сифатида ишга қабул қилинди.

Раҳбарият Ф. Алиевнинг ташкилотчилик ва касбий қобилиятини инобатга олиб, 1991 йилда уни мактаб-интернатга директор этиб тайинлашди. Унинг директорлик фаолияти давомида мактаб-интернат бинола-

рида бир қатор таъмирлаш ишлари олиб борилди. Унинг ташаббуси билан иккита иссиқхона қурилди, боғ барпо этилди. Таълим муассасаси худудида ҳаммом қурилди, сартарошхона иш бошлади. Ёрдамчи хўжалик ташкил этилиб, ҳудуд ободонлаштирилди.

Фармон Алиев бир неча йил Миллий Паралимпия ассоциацияси Андижон вилояти бўлими раҳбарининг ўринбосари лавозимида ҳам фаолият кўрсатди. Унинг қатъияти ва матонати туфайли паралимпия спорти секциялари янги спорт анжумлари билан таъминланди, тренажёрлар билан жиҳозланган спорт заллари ташкил этилди. Бу шарт-шароит ва қулайликлар жисмоний имконияти чекланган кўплаб спортчиларга 2016 йилда Рио-де-Жанейрода бўлиб ўтган Паралимпия ўйинларида қатнашиш имконини берди. Мазкур



ўйинларда Андижон вилоятидан иштирок этган 6 нафар спортчи 9 та – иккита олтин, бешта кумуш ва иккита бронза медалини қўлга киритишди.

Ф. Алиев пенсияга чиққан бўлса-да, мактаб-интернатда тарих фани ўқитувчиси ҳамда психолог сифатида фаолиятини давом эттириб келмоқда.

Асака туманидаги мактаблардан бирида логопед-ўқитувчи бўлиб ишлаётган турмуш ўртоғи Нафисахон билан бирга тўрт

нафар фарзандни вояга етказишди. Тўнғич ўғли Муроджон «Нурли маскан» мактаб-интернати директорининг хўжалик ишлари бўйича ўринбосари, қизи Диляраҳон мактаб-интернат тарбиячиси. Яна бир ўғли Ислонбек Асака туманида фельдшер бўлиб ишлайди. Кенжа қизи Мухлисахон эса Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети талабаси.

Хуллас, «Нурли маскан» мактаб-интернати фахрийси Фармон Алиевнинг юксак

давлат мукофоти билан тақдирлангани ҳақидаги хабарни эшитган ҳамкасблари, танишлари, дўстлари ва қишлоқдошлари уни табриклаш учун келиб, ўз сямимий тилаklarини билдиришмоқда.

Борис КЛЕЙМАН,
ўз мухбиримиз.

Андижон вилояти.

Суратда: Фармон Алиев (ўнгда) мактаб-интернат директори Дониёрбек Коробоев ва директор ўринбосари Раҳимжон Исроилов билан.

СОҲАСИНИНГ САРДОРИ

Энг улуг, энг азиз байрам арафасида бир гуруҳ ҳуқуқ-тартибот органлари ходимлари қаторида Сирдарё тумани ИИБ бошлиғининг ўринбосари – Тергов бўлими бошлиғи, майор Сардор Мирзабоев ҳам Президентимиз фармонида кўра «Шухрат» медали билан тақдирланди.

Сардор Мирзабоев 9-синфдан кейин ўқишини Гулистон шаҳридаги Хорижий тилларни чуқур ўқитишга ихтисослашган академик лицейда давом эттирди. Лицей-

ни муваффақиятли тамомлаб, шу йилнинг ўзида ИИБ Академияси курсанти бўлди.

Табиатан билимга чанқоқ Сардор Мирзабоев ўқишни аъло баҳолар билан тугатгач, Академия магистратурасига қабул қилинди. Икки йил давомида устозлардан ҳуқуқшуносликнинг сирасорларини чуқур ўрганди.

Соҳадаги дастлабки хизмат фаолиятини 2004 йилда Сирдарё тумани ИИБ Тергов бўлими терговчиси вазифасида бошлади. Таъкидлаш жоизки, мазкур туманда жиноятларни фош этиш, тергов қилиш бўйича ўзига хос мактаб яратилган. У шу мактабнинг яна бир ёш давомчисига айланди.

Сўнгра Мирзаобод тумани, Гулистон шаҳри, Сирдарё вилояти ИИБ Тергов хизматида турли масъулиятли лавозимларда фаолият кўрсатди. 2019 йилдан буён ҳозирги лавозимида хизмат қилиб келмоқда.

Ҳамкасблари С. Мирзабоевни ўз ишининг устаси сифатида эътироф этишади. У ўта мураккаб ўғирлик,



ғиёҳвандлик, фирибгарлик ишларини ҳам моҳирлик билан тергов қилиб, жазо муқаррарлиги таъминлашига ўз ҳиссасини қўшиб келмоқда.

Майор Сардор Мирзабоев турмуш ўртоғи билан тўрт нафар фарзандни вояга етказишмоқда.

– Хизматларим юқори баҳоланиб, «Шухрат» медали билан тақдирланганимдан жуда хурсандман, – дейди майор Сардор Мирзабоев. – Бунинг учун Юртбошимиздан, вазирлик раҳбариятидан жуда миннатдорман. Келгусида янада самарали хизмат қилиб, тинчлик-осойишталикни сақлаш, жиноятчиликни жиловлашга ўз ҳиссамни қўшаман.

Абдурахмон МУСТАФОҚУЛОВ,
ўз мухбиримиз.

Сирдарё вилояти.





Награжденные Родиной

«МОЙ СТИМУЛ К НОВЫМ ДОСТИЖЕНИЯМ...»



Так считает старший инспектор профилактики майор Гайрат Ураков, награжденный в канун празднования Дня независимости медалью «Шухрат».

Гайрату Уракову 43 года. Он уроженец Булунгурского района Самаркандской области. Службу в органах внутренних дел начинал рядовым сотрудником в апреле 1995 года в отделе охраны своего района. Параллельно обучался в Джизакском индустриальном колледже, набирался опыта. В коллективе заслужил уважение коллег, доверие руководства. В выборе профессии важную роль сыграл его отец, старшина в отставке Халил Ураков, посвятивший всю жизнь служению Родине. Он часто рассказывал интересные истории о буднях людей в погонах.

Недавно майора Уракова назначили старшим инспектором профилактики махалли Дўстлик. Прежде он отвечал за спокойствие

и порядок в соседней махалле Навбахор, где за три года его службы не произошло ни одного преступления.

На новом вверенном участке проживают более 600 семей, здесь есть ранее судимые граждане и малообеспеченные семьи, которым нужна социальная поддержка. Именно этой категории людей Гайрат Ураков уделяет пристальное внимание.

– Работа инспектора профилактики – это постоянное взаимодействие с людьми, диалог с гражданами, выезды на происшествия, – говорит майор Ураков. – Ко мне постоянно обращаются граждане, чаще звонят, сообщают о возникших проблемах. Самые распространенные – семейные конфликты. Сложнее работать с ранее



осужденными, решать вопросы их трудоустройства.

Как удалось нашему собеседнику добиться отсутствия правонарушений на вверенной ему территории?

– Хороший результат дает профилактический обход участка, работа с представителями махалли, – рассказывает Г. Ураков. – В борьбе с преступностью помогают и совместные рей-

ды по выявлению правонарушителей. В каждой работе есть свои сложности. Главное – действовать в пределах своей компетенции, настроиться на позитивный исход. За то короткое время, что проходит от регистрации происшествия до момента прибытия по адресу, нужно правильно подготовиться. Больше упорства, настойчивости и все будет по плечу.

– Служить Родине – священный долг каждого из нас. Государственная награда – признание труда всех моих коллег, с которыми плечом к плечу несую службу во имя сохранения мира, стабильности в обществе, спокойствия народа, мой стимул к новым достижениям, – заключил Г. Ураков.

Замира БАЛТАЕВА,
соб. корр.

Самаркандская область.



Служба профилактики

ТОНКОСТИ РАБОТЫ ИНСПЕКТОРА



Служба в правоохранительных органах требует от сотрудников особой наблюдательности, способности видеть то, что скрыто от взора других, умения анализировать, делать логические выводы. Старший инспектор ОПП СОБ ОВД Сардобинского района майор Сиёвуш Зарипов в полной мере обладает такими качествами.

С. Зарипов начал службу в органах внутренних дел инспектором профилактики ОПП ОВД Сардобинского района в 2011 году.

Ответственность, способность найти подход к каждому, небезразличие к проблемам и нуждам граждан, высокий профессионализм – вот перечень черт, которые должны быть присущи человеку, занимающему эту ответственную должность.

Будучи инспектором профилактики МСГ «Пахтакор», Сиёвуш оказал помощь и поддержку многим семьям, заслужил уважение граждан,

раскрыл немало преступлений. Недавно, к примеру, выявил факт незаконного хранения наркотических средств у гражданина У. К., 1981 года рождения. При обыске у подозреваемого было обнаружено и изъято более одного грамма марихуаны. Еще более двух граммов наркотического вещества он хранил у себя дома.

Майор Зарипов активно работает над реализацией концепции «Безопасная махалля». По его инициативе в сходах граждан «Кургантепа», «Навруз», «Отаюрт» Сардобинского района установле-

ны камеры видеонаблюдения. Произведена классификация жителей махаллей по актуальности проблем, социальному статусу, предрасположенности к преступлениям. На этой основе вырабатываются меры по предупреждению и профилактике правонарушений. Благодаря усилиям майора Зарипова в районе снизился уровень особо тяжких и социально опасных преступлений.

Абдурахмон МУСТАФОКУЛОВ,
соб. корр.

Сырдарьинская область.



«ЯНГИ ҲАЁТ УЧУН, ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН УЧУН»

Мустақиллигимизнинг 32 йиллиги байрам сифатида юртимизнинг барча ҳудудларида кўтаринки кайфиятда нишонланди. «Янги ҳаёт учун, янги Ўзбекистон учун» шиори остида ўтказилаётган бу йилги шодиёналар Ички ишлар вазирлиги тизимида ҳам кенг миқёсда ташкил этилди. Унда тинчлик-осойишталикни таъминлашда ички ишлар органлари ходимлари томонидан кўрсатилаётган фидойилик, ўз қасамёдига содиқ ходимлар эътироф этилди.

Шунингдек, Юртбошимизнинг тегишли фармони билан рағбатлантирилган бир гуруҳ ходимларга давлат мукофотлари тантанали равишда топширилди.

ЖИЗЗАХ ВИЛОЯТИ



Ички ишлар вазири ҳамда вилоят ИИБ бошлигининг буйруқлари асосида ҳар жабҳада ҳамкасбларига ўрнатилган «Аъло хизматлари учун», «Ички ишлар органларида бенуқсон хизматлари учун» кўкрак нишонлари, навбатдаги махсус унвонлар, фахрий ёрлик, эсдалик қўл соатлари ҳамда пул мукофотлари топширилди.

Ийгилишда мамлакатимиз раҳбарининг фармони асосида «Шухрат» медаллари билан тақдирланган Дўстлик тумани ИИБ бошлиғи, подполковник Шерзод Қосимов ҳамда

Арнасой тумани ички ишлар бўлими профилактика катта инспектори, майор Азизжон Абдусатторов қутланди.

Худди шундай, ички ишлар органлари ходимлари ўртасида ўтказилган «Энг яхши профилактика инспектори», «Энг яхши терговчи» ҳамда «Энг яхши маънавий-маърифий ишлар тарғиботчиси» кўрик-танловларининг ғолибларига диплом ва совғалар топширилди. Шу куни қутлуғ айём муносабати билан китоб ярмаркаси ҳам уюштирилди.

Ўз мухбиримиз.

БУХОРО ВИЛОЯТИ

Вилоят Ички ишлар бошқармасида бўлиб ўтган байрам тадбирида ҳам бир гуруҳ ходимлар тақдирланди. Кўп йиллик самарали меҳнати ва ижтимоий ҳаётдаги фаол иштироки учун «Шухрат» медаллари билан тақдирланган Қорақўл тумани ИИБ профилактика катта инспектори, подполковник Мансуржон Жалолов хизматлари эътироф этилди.



Шунингдек, яна бир гуруҳ ходимларга турли даражадаги кўкрак нишонлари ҳамда 22 нафар ходимга имтиёзли шартларда ипотека кредитлари асосида тураржой сотиб олиш учун дастлабки бадал пули ажратилганлиги ҳақидаги сертификатлар тантанали равишда топширилди.

Ўз мухбиримиз.

ТОШКЕНТ ШАҲРИ



ИИБ Халқаро аэропортларда хавфсизликни таъминлаш бўйича қўшинлари қўмондонлигида ўтказилган тантанали маросимда ўз хизмат бурчига масъулият билан ёндашиб, жанговар ва касбий тайёргарлик машғулотларида сафдошларига ўрнатилган келадиган, байрам муносабати билан Президентимиз, Ички ишлар вазири ва қўмондон томонидан рағбатлантирилган ҳарбий хизматчилар тантанали равишда тақдирланди.

Президентимиз фармонида кўра, «Содиқ хизматлари учун» медаллари билан тақдирланган 3-даражали сержант Мусратилла Эшонқуловга эсдалик совғаси топширилди.

Шу билан бирга, байрам муносабати билан ўтказилган спорт мусобақасида ғолибликни қўлга киритган ҳарбий хизматчилар ҳамда 25 нафар ҳарбий хизматчиларга навбатдаги ҳарбий унвонлар тантанали равишда топширилди.

Ўз мухбиримиз.



Тошкент шаҳар ИИББда ўтказилган тадбирда шаҳар ИИББ бошлиғи, генерал-майор Азиз Тошпўлатов шахсий таркибни байрам билан табриклар, Янги Ўзбекистонда ислохотларни муваффақиятли амалга оширишда шаҳар ички ишлар органлари ходимлари давлат ва жамиятнинг мустақкам таянчи бўлиб хизмат қилаётганини таъкидлади.

Тадбир давомида Президент фармонида кўра мукофотланган бир гуруҳ ходимларга мукофотлар тантанали равишда топширилди. Шунингдек, хизматда ижобий натижаларга эришган ходимлар рағбатлантирилди.

Ўз мухбиримиз.

■ г. Ташкент

НАША КОМАНДА

Роль и значение махалли, являющейся зеркалом жизни народа, в сохранении наших национальных ценностей, традиций и обычаев, поистине огромны.



В махаллинском сходе граждан «Биллур» Юнусабадского района столицы, председателем которого является Ахатилла Рахматов, махаллинской пятёркой принимается непосредственное участие в решении различных социальных проблем граждан, проживающих на территории. Здесь

создаются условия для духовного роста человека и проявления практической инициативы, оказывается материальная и моральная поддержка гражданам.

– В этом заслуга людей, меня окружающих, особенно инспектора профилактики, работающего во благо инте-

ресов людей, стоящего на защите спокойствия и правопорядка, – говорит Ахатилла Рахматов. – Главное в нашей работе – умение слушать и уважать людей. Каждое обращение граждан должно быть рассмотрено. Конечно, без своих помощников вряд ли бы успешно справился. Большую помощь в со-



ставлении документации, организации мероприятий оказывают инспектор профилактики ОВД № 3 УҚД ОВД Юнусабадского района лейтенант Кахрамон Ибрагимов, активистка по делам женщин Мухаббат Юсупова, лидер молодежи Абдулла Файзуллаев. Мы помогаем решать насущные проблемы. К примеру, помощь с получением ссуд и кредитов жителями махалли. В целях профилактики правонарушений среди неорганизованной молодежи регулярно проводим различные спортивные соревнования и культурно-просветительские мероприятия.

– Ежедневно общаемся с жителями, стараемся помочь в трудную минуту, – рассказывает инспектор профилактики лейтенант Кахрамон Ибрагимов. – Также проводим профилактические беседы с семьями, которые нахо-

дятся на грани развода. Недавно безработной женщине помогли трудоустроиться.

Махалля Биллур – одна из образцовых не только в районе, но и в Ташкенте. Чистые улицы, расставленные аккуратные контейнеры для мусора, во всех дворах саженцы и цветы, ухоженные детские площадки – свидетельство слаженной работы руководства махалли.

Наша команда работает на «отлично» – в махалле за все время не было никаких происшествий. Здесь действуют общественные комиссии по работе с подрастающим поколением, изучению жизни в семьях, по трудоустройству женщин. Преобразования, неустанная работа по благоустройству меняют жизнь людей к лучшему.

**Мардона
БАХТИЯРОВА.**



Новости законодательства

ПРИНЯТЫЙ ДОКУМЕНТ – СЛУЖИТ ИНТЕРЕСАМ ОБЩЕСТВА

Важным правовым документом в этой сфере стал закон о внесении изменений и дополнений в некоторые законодательные акты Республики Узбекистан в связи с совершенствованием законодательства в сферах экологии и охраны общественного порядка, принятый 11 июля 2023 года.

В действовавшем до этого законодательстве полномочия по рассмотрению правонарушений в сфере экологии и охраны окружающей среды, применение мер административного воздействия, имели лишь профильные организации. Их ограниченные штатные единицы не позволяли вести эффективную борьбу с правонарушениями в этой области.

С учетом данного обстоятельства в Кодекс Республики Узбекистан об административной ответственности, законы Республики Узбекистан «Об органах внутренних дел» и «О Национальной

гвардии Республики Узбекистан» внесены изменения, предоставляющие им право привлекать к административной ответственности лиц, совершивших правонарушения в сфере экологии и охраны окружающей среды.

Кроме того, сотрудники патрульно-постовой службы органов внутренних дел наделяются полномочиями оформлять протоколы административных правонарушений, в частности, связанных с жестоким обращением с животными, употреблением алкогольных напитков в общественных местах.

В статье 16 Закона «Об органах внутренних дел» указаны обязанности органов внутренних дел. В статье 50 настоящего Закона оговорен порядок участия в мероприятиях по карантину, санитарии и эпидемиологии, экологии и охране окружающей среды. Предписано также принимать меры по борьбе с правонарушениями в этом направлении. В свою очередь, настоящее Положение наделяет сотрудников органов внутренних дел полномочиями по рассмотрению соответствующих дел и применению мер административного наказания.

Кроме того, вносятся дополнения и изменения в статью 248 Кодекса Республики Узбекистан об административной ответственности. В частности, сотрудникам органов внутренних дел предоставляются полномочия по оформлению документации по восьми видам

правонарушений и принятию необходимых мер.

Ранее имелись некоторые проблемы по оформлению и рассмотрению правонарушений, связанных с экологией и охраной окружающей среды. С 11 октября 2023 года инспекторы профилактики, сотрудники патрульно-постовой службы, а также все закрепленные за территориями сотрудники будут вправе выявлять и составлять протоколы об административных правонарушениях по широкому спектру вопросов природоохранного и экологического характера.

Настоящий Закон послужит обеспечению прав граждан на здоровую экологическую среду, исполнению законодательства в данной сфере, профилактике правонарушений.

Ёдгор НИЯЗМЕТОВ,
подполковник.

Хорезмская область.





Пробация хизмати

МАҚСАД – НАЗОРАТ ВА КЎМАК

Озодликдан маҳрум қилиш билан боғлиқ бўлмаган жазоларни ўтаётган шахсларни ижтимоий мослаштириш, касбга ўргатиш, ишга жойлаштириш ва тадбиркорликка жалб этиш бўйича муайян ишлар қилинмоқда. Аини шу мақсадда ички ишлар органлари пробация хизмати, ҳокимлик, соғлиқни сақлаш, бандликни таъминлаш, ўзини ўзи бошқариш, ёшлар, хотин-қизлар йўналишида фаолият юритадиган қатор ташкилотларнинг ваколат ва масъулияти оширилди.

Жиззах вилояти ИИБ ЖХХ Пробация бўлими ҳамда унинг қуйи тизимлари ходимлари ҳамкорлар билан биргаликда жорий йилнинг ўтган даврида жазони очикда ўтаётган шахсларнинг 634 нафари ишга жойлаштирилди. 635 нафар маҳкумга ҳуқуқий ва психологик, 73 нафарига моддий ёрдам борасида, 11 нафарига истеъмол кре-

дитлари ажратилишида, 8 нафарига саломатлигини тиклашда, 7 нафарига шахсни тасдиқловчи ID-карталар расмийлаштиришда, яна 345 нафарига бошқа масалаларда кўмак кўрсатилди. Уй-жойга муҳтож мирзачўлик И.Колдошова эса ҳокимлик ҳисобидаги турар-жойга жойлаштирилди.

Бундан ташқари, пробация хизмати назорати



остида бўлган шахсларни ахлоқан тузатиш мақсадида маънавий-маърифий тадбирлар ташкил этиляпти, улар музей ва театрларга олиб борилмоқда. Ўз навбатида, тузалиш йўлига ўтган, қилмишидан чин дилдан пушаймон бўлган 633 нафар маҳкум муддатидан олдин шартли равишда озодликка чиқарилди.

Жазони очикда ўтаётган маҳкумлар устидан таъсирчан назоратни амалга ошириш масаласи ҳам эътибордан четда қолмаяпти. Уларнинг суд томонидан белгиланган талаб ва меъёрларга қатъий амал қилиши мун-

тазам текширилмоқда. Ҳар бир маҳкум билан алоҳида суҳбат ўтказилиб, уларнинг психологик портретлари ишлаб чиқилган ва қайта жиноят содир этиш эҳтимолига кўра профилактик тадбирлар белгиланмоқда.

Тез орада тизимда маҳкумларнинг ҳаракатини масофадан туриб кузатиш имконини берадиган болдирузуқларни қўллаш кутил-япти. Хуллас, қайта жиноятларнинг олдини олиш учун барча имкониятларни ишга соляпмиз.

Отабек АҲМЕДЖОНОВ,
подполковник,
Жиззах вилояти.



Чекка ҳудудларда

МАҲАЛЛА АҲЛИ МИННАТДОР

Чортоқ туманининг «Кесканёр» маҳалласи қўшни Қирғизистон Республикаси билан чегарадош ҳудудда жойлашган. Аҳолиси 2652 нафар бўлган маҳаллада жорий йилнинг ўтган даврида жиноят содир этилмади.

Маҳалланинг 1100 нафар аҳолиси чегара ҳудудида, яъни «Шодлик» массивида истиқомат қилади. Қардош қирғиз халқи билан тўй-маъракалар биргаликда ўтади. Шу боис чегара ҳудудда ишлашнинг ўзига хос масъулияти ҳам бор.

Уч йилдирки, профилактика инспектори, катта лейтенант Бобомурод Тўхтабоев маҳалла осойишталигига масъул. Унинг хизматни намунали ташкил этаётгани ижобий натижа бераётир.

– «Маҳалла бешлиги»нинг ҳам-жиҳатлиги билан ҳар қандай муаммони ҳал этса бўлади, – дейди маҳалла фуқаролар йиғини раиси Азаматжон Қодиров. – Уюшмаган ёшларни фойдали ишларга жалб қилиш, бўш вақтини мазмунли ўтказишга алоҳида эътибор қаратяпмиз. Асосийси, 4 нафар муқаддам судланган ва 3 нафар назоратдаги шахс билан якка тартибда олиб борилган

профилактик тадбирлар самараси ўлароқ, улар томонидан қайта жиноят содир этилмади.

Маҳалла кўчаларига, аҳоли гавжум жойларга видеокузатув мосламаларининг ўрнатилгани ҳам жиноятчиликнинг олдини олишда муҳим ўрин тутмоқда. Эътиборга молик яна бир жиҳат шуки, йил бошидан буён 13 та оила яраштирилган бўлса, шахсан профилактика инспектори, катта лейтенант Бобомурод Тўхтабоевнинг аралашуви билан мурсага келтирилган оилалар сони 6 тани ташкил қилди.

– Ҳамжиҳатликда, бир ёқадан бош чиқариб ишлаш, албатта, кутилган натижани беради, – дейди катта лейтенант Бобомурод Тўхтабоев. – Шу маънода, жиноятга мойиллиги бор ёшларни кўпчилик ўртага олиб, маҳалла фаоллари кўмагида тўғри йўлга солганимиз катта ютуғимиз бўлди. Тарбияси оғир бола спорт



тўғарагига жалб этилди. Ўсмир ёшидаги болалар ўзгарувчан бўлади, улар руҳиятидаги ўзгаришлар баъзан муаммолар келтириб чиқаради. Бундай пайтда бизнинг кўмагимиз билан ота-она ва фарзандлар ўртасидаги келишмовчиликлар ечилаётгани кишини қувонтиради.

Бобомурод яхши оиланинг фарзанди. Эндиликда унинг ўзи ҳам

намунали оила бошлиғи. Турмуш ўртоғи билан 2 нафар фарзандни тарбияламоқда. Энг муҳими, оиласидан кўнгли тўқ осойишталик посбонининг хизмат фаолиятдан маҳалла аҳли миннатдор.

Гулчеҳра БУВАМИРЗАЕВА,
ўз мухбиримиз.
Наманган вилояти.





Соҳа фидойилари

СИНЧКОВ, НИГОҲИ ЎТКИР

Август ойининг сўнги кунлари. Соат тахминан 08:31 ларда Тошкент шаҳар Чилонзор тумани 17-мавзесидаги кўп қаватли уйлардан бирининг олдида турган фуқаро Н.Ш.га тегишли «Жентра» русумли автоулов салонидан 5000 АҚШ доллари миқдоридagi пул ўғирлаб кетилди.

Тергов-тезкор гуруҳи таркибида воқеа жойида иш олиб борган Тошкент шаҳар ИИББ ЭКМ катта эксперти, капитан Боғибек Тожибоев ҳамда эксперт, капитан Арслон Мансуров автоуловни кўздан кечириш жараёнида бир неча қўл бармоқ изларини олишди. Олинган изларни тадқиқ қилиш жараёнида икки дона қўл бармоқ излари Сирдарё вилояти Янгиер шаҳрида яшовчи К.Б.нинг бармоқ излари билан мос тушди. Шу тариқа жиноят фош этилиб, К. Б. айбланувчи сифатида жиноят ишига жалб этилди.

Жиноятни очишда иштирок этган лавҳамиз қаҳрамони капитан Арслон Мансуров болалигидан детектив кинолардаги изкуварларга ҳавас қиларди. Айниқса, кўз илғамас деталлардан ҳам жиноятчи ҳақида катта маълумот оладиган эксперт-криминалистларга қизиқиши баланд эди. Шунинг учун ҳам у ИИБ Академиясида айнан эксперт-криминалистика фаолияти йўналишида таҳсил олди.

У дастлабки хизмат фаолияти-ни Сирдарё тумани ИИБ ЭКБда бошлади. Бу ерда устози Сирдарё вилояти ИИБ ЭКМ бошлиғи, подполковник Бегзод Ботиров ва бошқа ҳамкасбларидан соҳа сир-асрорларини ўрганди. Тергов-тезкор гуруҳи таркибида воқеа жойига чиқиб, ашёвий далилларга ишлов бериш маҳоратини оширди. Орадан икки йилча вақт ўтиб, у пойтахтда хизмат фаолиятини давом эттирди.

Капитан Арслон Мансуров бу ерда ҳам изланишдан тўхтамади. Дактилоскопик, трасологик, баллистик, хатшунослик, ҳужжатларнинг техник криминалистик, портрет, совуқ қуролларнинг криминалистик тадқиқотлари экспертизаси бўйича ўқиди ва етарли билимга эга бўлди. Мазкур йўналишлар бўйича мустақил эксперт тадқиқотлари ўтказиш ҳуқуқини берадиган гувоҳномага эга бўлиб, етук мутахассис бўлиб етишди.



У ҳуқуқбузарликларга қарши курашиш, жиноятларни фош этишда яхши натижаларни қўлга киритиш баробарида, турли танловларда фаол қатнашиб, фахрли ўринларни ҳам эгаллаб келмоқда. Хусусан, 2022 йилда Тошкент шаҳар ички ишлар органларининг эксперт-криминалистика бўлинмалари ходим-

лари ўртасида ўтказилган «Энг яхши эксперт-криминалист» кўрик танловида 3-ўринни эгаллаган бўлса, жорий йилги танловда янада фаоллик кўрсатиб, 1-ўринни қўлга киритди. Энди навбат танловнинг республика босқичига.

Сарвар СОБИРОВ,
ўз мухбиримиз.

Тошкент шаҳри.




Ёшлар – келажак бунёдкори

ВИЖДОН – ЭНГ ОЛИЙ ҲАКАМ,

– дейди катта лейтенант Дилбек Биллиев

Жиноятни фош этиш ва тўғри малакалаб, жазо муқаррарлигини таъминлаш терговчидан юксак билим ва маҳорат талаб этади, албатта. Косон тумани ИИБ ҳузуридаги Тергов бўлинмаси терговчиси, катта лейтенант Дилбек Биллиев тажрибасини бойитиб бораётган терговчилардан биридир.



ИИБ Академиясини тамомлаган қаҳраонимиз 2020 йили Косон тумани ИИБ ҳузуридаги Тергов бўлинмаси терговчиси сифатида дастлабки фаолиятини бошлаган. Дилбек мураббийи майор Элбой Ташановдан касб сирларини кунт билан ўрганди.

Касбга бўлган меҳр, шижоат, қолаверса, қонунчиликка оид янгиликларни мунтазам ўрганиш хислати Дилбек Биллиевга зиммасидаги вазифаларни бекам-кўст уддалашида, ҳатто турли танловларда ғолиблар сафидан жой олишида замин ҳозирлади. Унинг жорий йил август ойида вилоят ички ишлар органлари терговчилари ўртасида ўтказилган «Энг яхши терговчи» кўрик-танловида ғолиб бўлгани бунинг яққол исботи.

Айтганча, жорий йилнинг ўтган даврида катта лейтенант Дилбек Биллиев ўзига топширилган 48 та жиноят ишининг барчасини муваффақиятли тугатиб, жиноятга жазо муқаррарлиги таъминланишига катта ҳисса қўшди.

– Терговчи айбдорнинг айбини исботлаб, жиноятга жазо муқаррарлигини таъминлашга, айбсизларни оқлашга ўз ҳиссасини қўшса, энг олий ҳакам – виждони олдида юзи ёруғ бўлади, – дейди Дилбек Биллиев. – Зиммасидаги вазифага юзаки ёндашмаган, ўқишдан, изланишдан эринмаган ходим тўғри йўлдан ҳеч қачон адашмайди.

...Жорий йилнинг 2 март куни тумандаги «Ширинтепа» МФЙда яшовчи 10 нафар фуқаро туман марказида жойлашган авиакассадан ҳар бир донаси 2850000 сўмлик чипталарни сотиб олади. Белгиланган санада хорижга учиб кетиш учун аэропортга боришганида эса, авиачипталар сохталиги маълум бўлади.

Жиноий ҳолат юзасидан тергов-суриштирув ишларини олиб бориш катта лейтенант Дилбек Билли-

евга юкланади. Дастлабки суриштирувдаёқ фуқароларга сотилган чипталар Наргиза исмли ходима ва бошқа бир гуруҳ номаълум шахслар томонидан моддий манфаат кўриш мақсадида қалбакилаштирилгани ойдинлашди. Далиллар эса бир гуруҳ ҳамтовоқларнинг Наргиза жавобгарликка тортилишига эришиб, ўзлари сувдан қуруқ чиқишни режа қилгани ҳақида «сўзламоқда» эди. Шу сабабли гумонланувчиларнинг ёзув ва имзо намуналари ҳужжатлаштириб олиниб, тегишли экспертиза таъинланди.

Экспертиза хулосаларига кўра, Қарши шаҳри ва Косон туманида яшовчи яна 3 нафар шахс, яъни, айбланувчилар топилиб, уларга муносиб эҳтиёт чоралари қўлланилди. Пировардида, жабрланувчиларнинг ҳуқуқлари тикланди, уларга етказилган зарар тўлиқ қопланди. Айбдорлар эса тегишли жазосини олди.

Содиқ РАҲИМОВ,
ўз мухбиримиз.

Қашқадарё вилояти.



«ЗА НОВУЮ ЖИЗНЬ, ЗА НОВЫЙ УЗБЕКИСТАН!»

В территориальных подразделениях МВД прошли праздничные мероприятия, посвященные 32-й годовщине государственной независимости Республики Узбекистан и воплощающие в себе главную идею «За новую жизнь, за Новый Узбекистан!».



Самарканд



Республика Каракалпакстан



На мероприятиях присутствовали ветераны органов внутренних дел, члены семей сотрудников, погибших во время исполнения служебного долга, личный состав подразделений и служб.

В ходе мероприятий состоялись церемонии награждения сотрудников в связи с 32-летием государственной независимости Республики Узбекистан. Руководители поздравили личный состав с праздником, пожелали здоровья, достижений в службе, мирного неба над головой. Было зачитано праздничное поздравление министра внутренних дел личному составу и ветеранам ОВД, а также награждена группа сотрудников ОВД, которые честно, добросовестно, с искренним чувством своего долга перед Родиной и народом, выполняли свои служебные обязанности и подходят к ним с высокой ответственностью. Отличившимся сотрудникам в торжественной обстановке были вручены нагрудные знаки, почетные грамоты и ценные подарки. Также в торжественной обстановке был зачитан приказ о присвоении очередных званий отличившимся в службе сотрудникам.



Андижан



Навои



✦ **Ma'naviyat va ma'rifat darsi**

IMOM AL-BUXORIY – HADIS ILMINING SULTONI

Ona Vatanimiz o'zining ilm-u tafakkuri, qoldirgan boy adabiy va ilmiy merosi bilan jahon tamadduniga beqiyos hissa qo'shgan ulug' allomalari bilan ma'lum-u mashhurdir. Ular haqida so'z ketganda, butun hayoti va faoliyatini Islom dini ravnaqi hamda rivojiga bag'ishlagan bobomiz Imom al-Buxoriyni birinchilardan bo'lib hurmat-ehтиrom ila yodga olamiz.

Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil ibn Ibrohim ibn al-Mug'iyra ibn Bardazbeh al-Jufiy al-Buxoriy milodiy 810-yil 20-iyulda tavallud topgan. Imom Buxoriy bolaligidayoq otasi vafot etib, onasi tarbiyasida o'sgan. U yoshligidan aql-idrokli, o'tkir zehni va ma'rifatga havasi kuchli bo'lib, ayniqsa, hadis ilmini katta qiziqish bilan o'rganadi. O'n yoshidan Buxorodagi turli rivoyatchilardan eshitgan hadislarini, shuningdek, Abdulloh ibn Muborak va Vakiy kabi olimlarning hadis to'plamlarini mutolaa qilib, yodlagan, ustoz Shayx Dohiliy bilan hadis rivoyatchilari haqidagi qizg'in bahslarda ishtirok etadi.

825-yili Muhammad onasi va akasi Ahmad bilan Hijozga qarab yo'l oladi, muqaddas shaharlar hisoblanmish Makka va Madinani ziyorat qilib, olti yil Hijozda yashaydi. O'sha davr ilm-fani markazlaridan hisoblangan Damashq, Qohira, Basra, Kufa, Bag'dod shaharlarida yashab, mashhur olimlardan hadis bilan bir qatorda, fiqh ilmidan ham tahsil oladi, yetuk olimlar davrasida ilmiy bahs-munozaralarda qatnashib, ilm toliblariga saboq ham beradi.

Termizlik mashhur muhaddis Abu Iso at-Termiziy Imom Buxoriyga ham shogird, ham safdosh hisoblanib, ularning o'zaro munosabatlari juda iliq bo'lgan. Uzoq yillar Sharqning turli mamlakatlariga safar qilganidan keyin umrining oxirida Imom Buxoriy (863–868-yillari) Nishopurda yashab, madrasada tolibi ilmlarga hadis ilmidan dars bergan. O'sha paytda Nishopur Sharqning eng yirik ilmiy markazlaridan biriga aylanganligi sababli ko'plab mashhur olimlar shu yerda to'plangan edilar. Imom Buxoriy Imom Termiziy bilan ham aynan Nishopurda uchrashib qoladi. Ona diyorumizdan yetishib chiqqan mashhur ikki muhaddis o'rtasida unutilmas, qizg'in ilmiy bahslar, ko'pgina ijodiy, do'stona uchrashuvlar bo'lib o'tgan.

Imom Buxoriy nafaqat yirik olim, balki go'zal xulq-odob sohibi bo'lgan. U zehni o'tkirligi va yodlash qobiliyatining kuchlili bilan xalq orasida go'yat katta shuhrat qozongan. Manbalarda Imom Buxoriyning 600 mingga yaqin hadisni yod bilgani qayd qilingani ham bu fikrlarning dalilidir.

Imom Buxoriy xorijdan qaytgach, o'z vatani Buxoroda ko'plab sho-

girdlar va ulamolarga hadis ilmidan saboq berish bilan mashg'ul bo'lgan. Ko'pchilik uni hurmat qilgan, ammo tabiiyki, ba'zi hasadgo'ylarning xatti-harakati tufayli Buxoro amiri Xolid ibn Ahmad az-Zuhaliy bilan Imom Buxoriy o'rtasidagi aloqa buzilib qoladi. Shu sababli amir fitnachi, bo'htonkor kishilarning gapiga kirib, Imom Buxoriyga shaharni tark etishini buyuradi. Shundan keyin Buxoriy Samarqandga qarab yo'l oladi va bir muddat Xartang qishlog'ida o'z shogirdlari va qarindoshlarinikida yashagandan keyin og'ir kasallikka chalilib, (milodiy 870-yil 1-sentabrda) 60 yoshida vafot etadi va shu yerda dafn qilinadi.

Imom Buxoriy bizga boy va juda qimmatli ilmiy meros qoldirgan bo'lib, uning yozgan asarlari yigirmadan ortiqdir. Bunga misol tariqasida «Al-Jome' as-Sahih», «Al-Adab al-Mufrad», «At-tarix as-sag'ir», «At-tarix al-avsat», «At-tarix al-kabir», «Kitob al-ilal», «Bir ul-volidayn», «Asomi us-sahoba», «Kitob al-kuna» va boshqalarni aytib o'tish mumkin.

Buyuk allomaning eng mashhur asari, shubhasiz, «Al-Jome' as-Sahih» hisoblanadi. Bu asar «Sahih al-Buxoriy» nomi bilan ham mashhurdir. Uning ahamiyatli jihati shundaki, Imom Buxoriygacha yashab o'tgan aksar muhaddislar o'z to'plamlariga eshitgan barcha hadislarini tanlab o'tirmay kiritaverganlar. Imom Buxoriy esa har bir hadisni eshitib yozib olishdan oldin uning roviylarini kimligiga, taqvosiga, shariatga amal qilish-qilmasligiga hamda diniy va dunyoviy adolatiga juda qattiq e'tibor bergan. Rivoyat qilishlaricha, Imom Buxoriyga notanish bo'lgan bir hadis yetib kelibdi. Uning roviysi esa Imom Buxoriyning turgan joyidan boshqa yerda ekan. Imom Buxoriy shu hadisni sanadini va sahihligini u roviydan so'rab bilish uchun uzoq masofani bosib, uning uyiga kelgan ekan. Ammo bu roviyni dalaga, o'ziga tegishli bo'lgan yerga chiqib ketganini aytadi. Imom Buxoriy uning dalasiga yo'qlab borsa, qochib ketgan otini ushlab olish uchun etagini qayirib, xuddi yem solingandek ko'rsatib, otni chaqirayotgan ekan. Imom Buxoriy: «Bu inson tilsiz jonivorni aldab turibdi, undan nimani kutish mumkin», deya undan hadis tinglamasdan ortiga qaytib ketgan ekan.

Keyinchalik boshqa olimlar ham unga taqlid qilib, shu zaylda hadislar to'plamini yaratganlar. Imom Buxoriyning ushbu yirik asari yozilganiga taxminan 1200 yil bo'ldi.

O'sha davrdan boshlab shu vaqtgacha u Islom dinida Qur'oni karimdan keyingi ikkinchi muqaddas manba hisoblanadi. Imom Buxoriyning ushbu asari dunyoning ko'plab shaharlariga tarqalgan.

To'plamning 1325-yilda ko'chirilgan sakkiz jildidan iborat go'zal bir nusxasi hozir Istanbulda saqlanmoqda. «Al-Jome' as-Sahih»-ga ko'pgina sharhlar bitilgan bo'lib, muhim manba sifatida qayta-qayta nashr ham qilingan. Imom Buxoriyning to'plamlariga kiritilgan hadislar faqat Islom ta'limotiga tegishli umumiy qoidalarni aks ettirish bilan cheklanib qolmaydi. Ular mehr-muhabbat, saxiylik, ochiqko'ngillik, ota-onaga, ayollarga va kattalarga hurmat, yetim-yesirlarga muruvvat, faqir-bechoralarga himmat, Vatanga muhabbat, mehnatsevarlik va halollikka da'vat etish kabi haqiqiy insoniy fazilatlar va namunali tartibotlar majmuasidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqlarida:

«Markaziy Osiyo Uyg'onish davrining ko'plab yorqin namoyandalarining Islom va jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan bebaho hissasini alohida qayd etmoqchiman. Ana shunday buyuk allomalardan biri Imom Buxoriy o'z ahamiyatiga ko'ra islom dinida Qur'oni karimdan keyingi muqaddas kitob hisoblangan «Sahih Buxoriy»-ning muallifi sifatida butun dunyoda tan olingan. Bu ulug' zotning go'yat boy merosini asrab-avaylash va o'rganish, ma'rifati Islom to'g'risidagi ta'limotini keng yoyish maqsadida biz Samarqand shahrida Imom Buxoriy nomidagi Xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish to'g'risida qaror qabul qildik» degan Imom Buxoriyni va u kishi bizlarga qoldirgan ulug' ma'naviy merosni asrab-avaylash hamda o'rganish, shuningdek, yosh avlod vakillariga o'rgatish borasidagi ta'kidlari bugungi kunda dinimiz mohiyatini to'g'ri tushunish hamda uning go'ya va ta'limotlarini xalqimizga to'g'ri yetkazishda katta ahamiyat kasb etadi.



Kezi kelganda ta'kidlash lozimki, Prezidentimiz tashabbusi bilan 2017-yilda faoliyatini boshlagan mazkur Xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi musulmon dunyosi buyuk mutafakkirlarining boy merosi, ularning jahon sivilizatsiyasi rivojiga qo'shgan bebaho hissasi va ilm-fan taraqqiyotida tutgan o'rnini chuqur tadqiq etish va keng targ'ib qilish, yosh avlodni millatlararo va dinlararo munosabatlarda bag'rikenglik, o'zaro hurmat, tinch-totuv hayotga intilish kabi dinimizning asl qadriyatlarini va madaniyatini to'g'ri anglash va ularni sadoqat ruhida tarbiyalash, xalqaro miqyosdagi hamkorlik hamda o'zaro muloqotni mustahkamlash maqsadida tashkil etilgan.

Markaz Imom Buxoriy va boshqa mutafakkirlarning ulkan ilmiy va diniy merosini o'rganish, ular yaratgan asarlarning ilmiy-izohli tarjima va qiyosiy matnlarini nashr etish orqali xalqimiz va jahon jamoatchiligi o'rtasida keng targ'ib qilish, ushbu mavzularga doir ilmiy tadqiqotlarni tizimli tashkil etish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish singari dolzarb vazifalarni amalga oshirib kelayotir. Shuningdek, «Jaholatga qarshi – ma'rifat» g'oyasi asosida Islom diniga nisbatan sodir etilayotgan asossiz xurujlarning oldini olish, diniy aqidaparastlik, mutaassiblik, ekstremizm, missionerlik, soxta tariqatlar va jamoalarning maqsadlari, g'oyaviy-aqidaviy negizlari, zamonaviy ko'rinishlari va faoliyat usullarini o'rganish va ularga qarshi kurashning ilmiy-ma'rifiy asoslarini ishlab chiqish hamda amaliyotda qo'llash uchun tavsiya etishda ham markaz jamoasi xayriy ishlarni amalga oshirmoqda.

Xulosa o'rnida aytish lozimki, Vatanni sevish, ilm-hunar sirlarini egallash, omonatga xiyonat qilmaslik, halollik va rostgo'ylik kabi insoniy fazilatlarini ulug'lovchi hadislar necha asrlar o'tsa-da, qimmatini yo'qotmay, aksincha hayotimizda tobora dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda.

Sherzod ABDUSAMADOV
tayyorladi.





Фахрийлар – фахримиз

ҲАЛОЛЛИК ШИОРИНГИЗ БЎЛСИН, ДЕЙДИ ИСТЕЪФОДАГИ ПОДПОЛКОВНИК БАҲРОМЖОН ХОЛИҚОВ

Фарғоналик ички ишлар органлари фахрийлари билан суҳбатлашиб қолгудек бўлсангиз, истеъфодаги подполковник Баҳромжон Холиқов ҳақида кўп ва хўп яхши гапларни айтишади. Интизомни, касбга садоқатни ундан ўрганиш кераклигини таъкидлаб, ёш ходимларга ибрат қилиб кўрсатишади.

1954 йилда Бувайда туманининг Жийдали қишлоғида туғилган Баҳромжон Холиқов бежизга ички ишлар органлари соҳасини танлагани йўқ. Бу соҳа унга ота касб. Падари бузруквори, катта сержант Раҳимжон Холиқов II Жаҳон урушидан кейинги йилларда ички ишлар органларида хизмат қилиб, 1972 йилгача эл-юрт осойишталигига муносиб ҳисса қўшган.

Отасига ҳавас қилган Баҳромжон ҳарбий хизматдан қайтгач Тошкент ўрта-маҳсус милиция мактабига ўқишга кирди. 1977 йилда ўқишни тамомлаб, Фарғона вилояти ИИБ Жиноят қидирув бўлимида хизматни бошлади. 8 йил мазкур бўлимда турли лавозимларда

фаолият кўрсатди.

Б.Холиқов 1985 йилдан бошлаб тизимда турли раҳбарлик лавозимларида хизмат қилди. Жумладан, Учкўприк тумани ҳамда Фарғона шаҳар ИИБ бошлигининг ўринбосари, Фарғона шаҳридаги 1-милиция бўлини маси бошлиғи, Данғара тумани ИИБ бошлиғи, Қирғули тумани ИИБ хузуридаги қўриқлаш бўлими бошлиғи ҳамда Фарғона вилояти ИИБ ППХ батальони командири вазибаларида самарали фаолият кўрсатиб, 2006 йилда ёруғ юз билан нафақага чиқди.



Б.Холиқов соҳада иш бошлаган кезлари касб сир-асрорларини ўргатган подполковник Ваҳоб Ашурматов, полковниклар Василий Чижков, Данил Синявский каби

тажрибали устозларини ҳеч қачон ёдидан чиқармайди.

Шу билан бирга, полковник Ҳақимжон Гойибназаров, подполковниклар Шарофиддин Худоёров, Адҳамжон Хайдаматов, капитан Мадамин Отахонов каби шогирдлари борлигидан фахрланади.

– Ёш ходимларга айтар сўзим ва насиҳатим шуки: аввало она Ватанни ва танлаган касбингизни яхши кўринг, – дейди истеъфодаги подполковник Баҳромжон Холиқов. – Ҳалоллик ва тўғрисиқлик шиорингиз бўлсин. Устозларни ҳамиша ҳурмат қилиб, уларнинг яхши фазилатларини ўрганинг. Касбини яхши кўрган, ҳалол ва тўғрисиқ инсон хизмат интизомини асло бузмайди. Бундай ходим ҳамиша ютуқларга эришади. Сафдошларнинг ҳурматида, эл-юртнинг меҳрига сазовор бўлади.

Абдувосит СИДИҚОВ,
Ўз мухбиримиз.
Фарғона вилояти.

Мустақиллик сурури

■ Навоий вилояти

«ШУКРОНА КУНИДА ШУКРОНАМ ДУНЁГА КЕЛДИ»

Жонажон Ватанимизнинг Мустақиллиги, мана 32 йилдирки, меҳнаткаш ва танти халқимизни буюк марралар сари чорлаб, илҳомлантириб келмоқда. Ички ишлар органларида қарийб 7 йилдан буён фаолият олиб бораётган капитан Бобораҳим Исмоилов эл-юрт равнақи, осойишталиги йўлида хизмат қилишни юксак бахт деб билгучилардан. Унинг учун Истиқлол нафақат хурлик тантанаси, балки оиласининг тўқис бахти нишонаси ҳамдир. Боиси, Ватанимиз мустақиллигининг 31 йиллиги Исмоиловлар хонадонига шукроналик бахтини улашди. Ўтган йили 1 сентябрь куни туғилган қиз фарзанд ёш оилага чексиз қувонч бахш этди. Шукрона кунларимиз рамзи сифатида унга Шукрона деб исм қўйдилар.



– Шукрона кунда Шукронам дунёга келди. Келажакда қизимни эл-юрт корига ярайдиган, ўқимишли инсон қилиб тарбиялашга ҳаракат қиляпмиз. Уйга борганимда, қизалоғим атак-чечак қилиб ёнимга келиб, мени ачомлаб олади. Шунда ўзимни жудаям бахтиёр ҳис этаман, – дейди вилоят ИИБ Маънавий-маърифий ишлар ва кадрлар билан таъминлаш хизмати катта инспектори, капитан Бобораҳим Исмоилов.

Маҳлиё ХОЛОВА,
Ўз мухбиримиз.

■ Бухоро вилояти

ИСТИҚЛОЛ ШАРОФАТИ

Юртимизда мисли кўрилмаган ижобий ўзгаришлар юз беряпти. Истиқлол неъматларидан ҳар биримиз баҳраманд бўляпмиз. Ана шундай дориламон кунларда яшаётганимдан бахтиёрман. Мен 1993 йилда туғилганим учун ўзимни Мустақиллик фарзанди деб биламан.



2013 йилнинг сентябрь ойи мен учун қўшалок байрам бўлди – ҳам Мустақиллигимизнинг 22 йиллигини нишонладик, ҳам ички ишлар органи ходимлари сафига қабул қилиндим. Айни вақтда вилоят ИИБ ЖХХ ЖТСБ ППХ батальони кадрлар гуруҳи катта инспектори лавозимида хизмат қилиб келмоқдам.

Жорий йил менга яна омад кулиб боқди. Март ойида спортнинг самбо тури бўйича вилоят ИИБ биринчилигида ўз вазн тоифамда мутлақ голиб бўлдим. Яқинда эса менга ҳам уй-жой сотиб олишим

учун имтиёзли пул маблағлари ажратилди. Буларнинг барчасини Янги Ўзбекистонда ёшларга берилаётган имконият деб биламан.

Бекзод ЗАРИПОВ,
катта сержант.

■ Андижанская область

В Андижане реализована программа «Дорожный дружинник» («Йўл посбони»), направленная на обеспечение безопасности дорожного движения.



ОБЕСПЕЧИВАЯ БЕЗОПАСНОСТЬ НА ДОРОГАХ



Активное участие в реализации данной программы приняли хокимият Андижанской области, Управление безопасности до-

рожного движения СОБ УВД Андижанской области и областное управление Агентства по делам молодежи.

Сотни молодых людей, пройдя отбор, стали дорожными дружинниками. В торжественной обстановке им были вручены соответствующие атрибуты – специальные удостоверения, жилеты, кепки, жезлы регулировщика дорожного движения, аптечки для оказания первой медицинской помощи.

Дорожные дружинники прошли краткосрочные курсы обучения при УБДД СОБ УВД Андижанской области, обучившись навыкам регулировки дорожного движения и оказания первой медицинской помощи.

Сегодня около 350 дорожных дружинников уже несут службу по всей Андижанской области возле школ, лицеев, высших учебных заведений.

Борис КЛЕЙМАН,
соб. корр.

■ Кашкадарьинская область

ПРОАНАЛИЗИРОВАНА РАБОТА МАХАЛЛИНСКИХ «ПЯТЕРОК»

В рамках мероприятия «Безопасная территория» в Кашкадарьинской области ведется целенаправленная работа по обеспечению общественного порядка, профилактике правонарушений, оперативному раскрытию преступлений.

На состоявшемся в городе Карши собрании по вопросам оздоровления криминогенной ситуации и предупреждения правонарушений рассмотрены очередные задачи в данном направлении. В мероприятии приняли участие прокурор области, начальники УВД области и областного управления Национальной гвардии, представители ряда заинтересованных организаций, руководители секторов города Карши. Участники проанализировали деятельность махаллинских «пятерок» в данном направлении. Анализ показал рост преступности по некоторым видам правонарушений, что было подвергнуто критике.

Было указано на необходимость активизации работы в махаллях,



включенных в «красную» и «желтую» категории, скоординировав усилия органов внутренних дел, Национальной гвардии, представителей общественных организаций. Ответственным лицам поручено усилить ночную службу, обеспечить освещение улиц и торговых точек, установку камер видеонаблюдения, выявлять в развлекательных центрах молодежи, на рынках, в общественных местах потенциальные очаги правонарушений, проводить профилактические мероприятия, активизировать деятельность

представителей общественности. Руководителям секторов поставлена задача по созданию махаллинских пунктов правопорядка в неблагополучных МСГ.

По итогам обсуждений принято решение о проведении следующего собрания, посвященного анализу деятельности руководителей секторов и других структур по работе «махаллабай» и «хонадонбай», в том числе намечено рассмотреть состояние работы по профилактике правонарушений.

Содик РАХИМОВ,
соб. корр.

✓ Преступление
и наказание

МОШЕННИК В ОБЛИЧИИ ПРЕПОДАВАТЕЛЯ

В общем понимании бизнес – это решение проблемы. Такое определение дают классики жанра. Раз есть спрос, то можно найти способ его удовлетворения. Так рассуждал и преподаватель одного из высших учебных заведений города Нукуса, О. Е. Только бизнес он выбрал криминальный.



Узнав, что житель Элликалинского района, Ю. Д., учится в Ташкентском химико-технологическом университете, но хочет поменять вуз на другой, расположенный поблизости, предложил посодействовать переводу в Нукусский государственный педагогический институт им. Ажинияза. За свою «помощь» взял со студента 1 200 долларов США. Преподаватель заверил, что за 1 500 долларов США может устроить в данный вуз племянника Ю. Д. на основе суперконтракта.

Следующей жертвой мошенника стал другой житель Элликалинского района. Войдя в доверие к гражданину М. Г., преподаватель-бизнесмен пообещал за 1 200 долларов США перевести его дочь, обучающуюся в Республике Казахстан, в Нукусский государственный педагогический институт им. Ажинияза.

Но незаконно нажитые средства не пошли впрок. Обманутые граждане вскоре обратились в органы внутренних дел. Мошенник был задержан и по решению суда понес заслуженное наказание.

Можно понять желание родителей создать более благоприятные условия для своих детей-студентов, обучающихся вдали от дома. Но подобные вопросы необходимо решать согласно законам и установленным порядкам, а не прибегать к услугам мошенников.

Умар МИРИЕВ,
майор.

Республика Каракалпакстан.



✓ **Yangi O'zbekiston – yangi ichki ishlar organlari**

■ **Surxondaryo viloyati**

Termiz shahridagi 1-sonli Ichki ishlar bo'limi xizmat hududidagi 18 ta mahallada bugungi kunda 103 ming nafardan ziyod aholi istiqomat qiladi. Qolaversa, hududda 4 ta katta bozor, 5 ta oliygoh, 15 ta maktab va 2 ta viloyat miqyosidagi shifoxona joylashgan. Demak, hudud osoyishtaligini ta'minlash bo'lim xodimlari zimmasiga o'ziga yarasha mas'uliyat yuklaydi.

Xodimlarga yetarli shart-sharoit yaratish maqsadida yaqinda 1-sonli Ichki ishlar bo'limining yangi, barcha zamonaviy qulayliklarga ega binosi foydalanishga topshirildi.

– Ikki qavatli binoda har bir yo'nalishdagi xodim uchun shinam, yorug' va zamonaviy jihozlangan xonalar ajratilgan, – deydi bo'lim navbatchilik qismi katta inspektor-navbatchisi, leytenant Farhod Dulanov. – Navbatchilik qismida ham barcha qulayliklar mavjud.

Bo'limning yangi binosida endilikda xodimlar fuqarolarning og'irini yengil qilish, ularning murojaatlarini o'z vaqtida qabul qilish, hududda huquqbuzarlik va jinoyatlar sodir etilishining oldini olish maqsadida astoydil xizmat faoliyatini olib borishadi.

O'z muxbirimiz.



* * *

■ **Qashqadaryo viloyati**

Qashqadaryo viloyatida hozirga qadar 34 ta yangi huquq-tartibot maskani qad rostladi.

Istiqlolning 32 yillik shodiyonasi arafasida Ko'kdala tumanidagi «Ko'kdala», G'uzor tumanidagi «Do'ltali», Qamashi tumanidagi «Istiqbol», Shahrisabz shahridagi «Kesh» mahallalarida barpo etilgan zamonaviy huquq-tartibot maskanlari xodimlar va aholi uchun chinakam bayram sovg'asi bo'ldi.

Mahalla huquq-tartibot maskanlarida onlayn sud majlisi o'tkaziladigan xona, videokonferensaloqa seansini o'tkazish uchun mo'ljallangan qurilmalar bilan jihozlangan yig'ilish zali, profilaktika inspektori, xotin-qizlar masalalari bo'yicha inspektor, voyaga yetmaganlar masalalari bo'yicha inspektor-psixolog, milliy gvardiya hamda jamoatchilik vakillariga mo'ljallangan xonalar mavjud.

O'z muxbirimiz.



Кинотақдим

МЕН ШОИРМАН, ИСТАСАНГИЗ ШУ...

Бу дунёда суюниб яшайдиган Ватан ҳар бир инсон учун муқаддасдир. Ватанга бўлган муҳаббат, аканинг сингилга, онанинг фарзандга, ошиқнинг маҳбубасига бўлган меҳру муҳаббати, ғамхўрлиги ва садоқати каби чексиз ва тамасиздир.



Бошқалардан фарқли ўларок, ижодкорларда она Ватанга бўлган муҳаббат ҳисси айрича кечади. Ватаннинг ҳар бир чеккан озори шоир қалбини ларзага солади. Ватанга қилинган зуғумлар шоирни чорасизлик гирдобига ташлайди. Шоир бор аламини қоғозга тўқади. Изтиробларини ёзиб тугатгач, қалби ором топгандай бўлса-да, аслида бу дард – Ватанга бўлган муҳаббат, соғинч ҳисси умр бўйи шоирни таъқиб қилади. Чинакам шоирлар ана шундай бўлади...

Президентимиз ташаббуси билан Ўзбекистон Кинематография агентлиги буюртмасига асосан Хужжатли ва хроникал фильмлар киностудияси томонидан Ўзбекистон Қаҳрамони, Ўзбекистон халқ шоири, давлат мадҳияси матни муаллифи Абдулла Орипов ҳаёти ва фаолияти ҳақида сўзловчи бадиий фильмни кўрарканмиз, беихтиёр кўнглимиздан ана шундай ўйлар кечади...

Фильм Ўзбекистон ва Америка Қўшма Штатларида тасвирга олинган. Музаффархон Эркинов режиссёр-



лик қилган ушбу фильмда Абдулла Ориповнинг кексалик даврини Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган артист, Сурхондарё вилояти театри актёри Қудратилла Бурхонов, шоирнинг рафиқаси Ханифа Мустафоёва ролини эса Ўзбекистон халқ артисти Гулчеҳра Жамилова маромига етказиб ижро этган. Бундан ташқари, фильмда шоирнинг ёшлигини шоир Шодмонқул Салом, маҳоратли ёш актриса Райҳон

Асадова, Фарҳод Абдуллаев, Меҳриддин Раҳматов ва бошқа кўплаб таниқли актёрлар турли образларни гавдалантирган.

Фильмда халқимизнинг севимли фарзанди Абдулла Орипов ҳаёти ва фаолиятида ўчмас из қолдирган улуғ инсонлар – Абдулла Қаҳҳор, Шароф Рашидов, Шукур Холмирзаев, Эркин Воҳидов, Бегали Қосимов сингари юрт истиқболи, истиқлоли учун жон куйдирган фидойи инсонлар ҳақида ҳам тўхталиб ўтилгани унинг янада ҳаққоний чиқишига салмоқли ҳисса қўшган.

Абдулла Орипов ижодини улкан денгизга қиёслаш мумкин. Гарчи фильмда

улуғ ижодкор ҳақида батафсил маълумотлар беришнинг иложи бўлмаса-да, бир томошабин сифатида бу йўлдаги дастлабки уринишни муваффақиятли чиқди, деб ҳисоблашқас бўлади. Ўйлаймизки, бу каби хайрли ишлар юртимизнинг бошқа фидойи инсонлари мисолида ҳали давом этажак...


Абдулла Ориповга жуда кўп тошлар отилди. Отилган ҳар бир тош йиллар давомида гоҳ ошкора душман, гоҳ ҳасадчи ҳамроҳ сифатида улуғ ижодкорнинг давр синовларига бўлган бардошини катта синовдан ўтказди. Улар жуда кўп қинғирликларни қилганига тарих гувоҳ. Фақат бир нарсани, Абдулла Ориповнинг Ватанга бўлган самимий ва беғараз муҳаббатини ўзгартира олмади. Зеро, бу ҳақда Абдулла Орипов ўзи айтганидек: «Мен шоирман, истасангиз шу...»

Шерзод
АБДУСАМАДОВ,
ўз мухбиримиз.

Шунақаси ҳам бўлади

ТАРИХИЙ ЭКСПОНАТЛАРГА «ШАЙДО» ТАЛАБАЛАР

1985 йилнинг илк куни Мехикодаги Миллий антропология музейи ходимлари учун ташвишли бошланди. Американинг Колумбгача бўлган ацтек маданиятига доир 124 та бебаҳо экспонат, жумладан, заргарлик буюмлари ўғирлаб кетилганди. Ўғрилар ҳеч қандай из қолдирмаган. Ўз тарихий мероси билан ниҳоятда фахрланган мамлакат аҳли ҳайратда эди.



Табиийки, турли тахминлар кўпая бошлади. Гап шундаки, 1972 йилдан Мехикода тарихий ашёларни коллекция қилиш, сотиш тақиқланганди. Улар миллий мерос, дея эълон қилинган. Шу боис экспонатларни мамлакатдан олиб чиқишнинг иложи йўқ эди. Лекин йўқолган бебаҳо буюмлар сувга тушган тошдек ғойиб бўлганди.

Ўғриликни разведка ходимлари ёки халқаро ўғрилар эмас, балки ветеринария бўйича таҳсил олувчи икки талаба – Карлос Перчер Тревина ва Рамон Сардина Гарсия содир этгани маълум бўлганида ҳамма бошини чангаллаб қолди. Талабалар Янги йил байрамидан олти ой олдин жиноятга тайёргарлик кўришни бошлашган. Музейда 50 мартадан кўпроқ бўлиб, бинонинг тархини чизишган, кўриқчиларнинг алмашиш вақти, ҳаракатларини ўрганишган. Сигнализация ишламаслигини пайқашган.

Ўша кеча ёш ўғрилар ўз оилалари даврасида байрамни ўтказишгач, қора кийимларни кийиб, музейга йўл олишади. Улар девордан осонгина олиб ўтишади ва вентиляция тизими орқали ертўлага киришади. У ердан залларга ўтиш қийин эмасди. Улар қимматбаҳо буюмларни олиб, деразадан хотиржам чиқиб кетишади. Ҳаммаси учун 30 дақиқа етарли бўлди.

Кутилганидек, сигнализация тизими ишламади. Янги йил байрамини нишонлаган кўриқчилар маст бўлишгани учун ҳеч қандай айланма йўлдан чиқиб кетишга ҳожат қолмади. Полиция экспонатларни бутун мамлакат бўйлаб қидираётганда, улар шундоққина яқиндаги хонадонда, талабалардан бирининг жавонида ётарди. Кейинчалик Карлос гиёҳвандликка мубтало бўлиб қолди ва ўғирланган товарларнинг бир қисмини кокаинга алмаширди. Шу боис қўлга тушди. Гарсия эса мамлакатдан эсон-омон қочиб кетганлиги учун уни тутишнинг иложи бўлмади. Яхшиямки, тарихий ашёларни сотиш уларни ўғирлашдек осон эмасди. Шунинг учун деярли барча экспонатлар бус-бутун ҳолда музейга қайтарилди.

А. МУСТАФОҚУЛОВ тайёрлади.



✓ Урок духовности и просвещения

ИМАМ АЛЬ-БУХАРИ – ОСНОВАТЕЛЬ ХАДИСОВЕДЕНИЯ

Его полное имя Абу Абдуллах Мухаммад ибн Исмаил ибн Ибрагим аль-Джуфи аль-Бухари. Мухаммад аль-Бухари – величайшая фигура в мусульманском мире, известный богослов IX столетия, который прославляется уже более тысячи лет. Он автор книги хадисов «Сахих аль-Бухари», которая является второй по значимости книгой после Корана.

Имам аль-Бухари родился в 810 году в Бухаре. Мальчик рано потерял отца и остался на попечении матери. Она была образованной, одухотворенной женщиной, контролировавшей обучение сына различным наукам. Он был проницателен, сообразителен, обладал необычайным интеллектом.

Имам аль-Бухари был наделен способностью запоминать хадисы, еще в раннем детстве. Однажды его спросили: «Как ты начал изучать хадисы?» Он ответил: «Мысль о необходимости запоминать хадисы была внушена мне, когда я только начинал учиться, тогда мне было десять лет или менее».

Когда аль-Бухари исполнилось шестнадцать лет, вместе с матерью и братом он отправился в Мекку. Совершив паломничество, близкие юноши вернулись в родные края. Сам он предпочел остаться. Спустя два года молодой путешественник посетил Медину, где на могиле пророка родились его первые книги «Кадаяс-Сахаба уат-Табиин» и «Ат-тарих-уль-аль-Кабир».

У аль-Бухари была феноменальная память, глубокий и проницательный ум. Услышав

текст, всего один раз, юноша мог пересказать его с точностью до буквы.

Вот, что говорили его современники: «В городе Басра аль-Бухари, который был тогда еще юношей, посещал с нами разных шейхов, являвшихся знатоками хадисов, но ничего не записывал. Через несколько дней мы спросили: «Почему посещая вместе с нами разных шейхов, не делаешь записей?». Через шестнадцать дней аль-Бухари ответил: «Поистине, вы много говорите и досаждаете мне! Покажите-ка, что вы записали». Присутствующие достали свои листы, где было записано более пятнадцати тысяч хадисов, а он стал читать все это наизусть, некоторые даже принялись исправлять записи в соответствии с тем, что аль-Бухари читал по памяти. Потом он спросил: «Считаете ли вы, что я посещаю разных шейхов ради шутки и попусту растрачиваю свои дни?». После этого всем стало ясно, что опередить его не сможет никто».

Многие улемы хвалили имама аль-Бухари. По словам имама Ахмада, в Хорасане не было еще подобного имаму аль-Бухари. По словам Абу-



ль-Аббаса ад-Даляви, жители Багдада написали послание к Мухаммаду аль-Бухари, в котором говорили, что не покинет мусульман благо, пока с ними будет имам аль-Бухари. Также они говорили, что после имама аль-Бухари его будет очень недоставать и лучшего, чем он, не найдется.

Имам аль-Бухари стал ведущим разработчиком, который применял в своей работе принципы, давшие возможность классификации хадисов, учитывая их принадлежность к источнику. Он же является одним из основоположников типологии разделения их на отвергаемые и приемлемые, а также разработал систему

причин, по которым те или иные хадисы отвергались.

Проделанный им поистине титанический труд по их критике и отбору привел к блестящим результатам. Из шестисот тысяч хадисов, которые были известны аль-Бухари, он включил в число достоверных только около одного процента хадисов, то есть семь тысяч двести семьдесят пять.

Во время поездки в Самарканд мыслитель внезапно скончался, успев предварительно помолиться и написать завещание. Богослов был похоронен в одном из своих любимых селений – Хартанг.

После смерти имама его главный труд «Сахих аль-Бухари» получил широкую известность во всем исламском мире, а через два века после его опубликования стал одним из шести основных суннитских сборников хадисов. Труд аль-Бухари примечателен еще тем, что это первый сборник хадисов, составленный по принципу мусаннаф, т.е. с классификацией хадисов по сюжетам. Аль-Бухари известен также и как составитель авторитетного свода биографий передатчиков хадисов – «Ат-тарих аль-кабир», созданного им в нескольких редакциях.

Сегодня место, где похоронен аль-Бухари, одно из наиболее почитаемых не только в Узбекистане, но и во всей Центральной Азии, во многих мусульманских странах.

Соб. корр.



Город Чианджур (Индонезия).
Мечеть «Имам аль-Бухари».





Хизматларда

ЖИНОЯТНИ ФОШ ЭТИШДА МУҲИМ ТАНДЕМ

Одатда жиноят содир этган шахс қилмишини яшириш мақсадида ашёвий далилларни йўқ қилиш, изларни йўқотишга уринади. Лекин қанчалик ҳаракат қилмасин, кинологлар ва уларнинг хизмат итлари ашёвий далилни топиб, жиноятни фош этишга муваффақ бўлишади.



Қорақалпоғистон Республикаси ИИБ ЖХХ ЖТСБ Кинология хизмати ходимлари томонидан жиноятчиликнинг олдини олиш ва жиноятларни фош этиш борасида қатор ишлар амалга ошириб келинмоқда. Жорий йилнинг 8 ойи мобайнида кинологлар хизмат итлари билан 246 марта жиноят жойига чиқиб,

170 та жиноятни очишга эришдилар. Жиноятларнинг 130 таси ўғирлик бўлса, 31 таси гиёҳвандлик моддалар сақлаш ва сотиш, 5 таси қотиллик, 1 таси босқинчилик ҳолатлари билан боғлиқдир.

Жорий йилнинг июнь ойида Чимбой тумани «Қизилўзак» овул фуқаролар йиғини ҳудудида танасида

жароҳатлари бўлган аёл кишининг мурдаси топилди. Суриштирувларда у Чимбой туманида яшаган Т.К. эканлиги ойдинлашди. Тергов-тезкор гуруҳи таркибида воқеа жойига чиққан кинология бўлинмаси инструктор кинологи, кичик сержант Ш.Жарекеев «Гарри» лақабли хизмат ити билан ишга киришди. Хизмат итининг из олиши туфайли мазкур жиноятга қўл урган Чимбой туманида яшовчи О.К. қўлга олинди.

Нукус шаҳрида тадбиркорлик фаолиятини олиб бораётган К.И. ички ишлар органларига қилган мурожаатида ўзига тегишли бўлган ишлаб чиқариш цехидан арматура ва темир профиллар ўғирлаб кетилганлигини маълум қилади. Ўғирликни фош этиш юзасидан олиб борилган қидирув ишларига кинология бўлинмаси инструктор кинологи Э.Қурбанбаев «Рэт» лақабли хизмат ити билан жалб этилди. «Рэт»нинг воқеа жойидан из олиб бориши натижасида ўғирланган нарсалар топилади. Суриштирув ишлари чоғида уни содир этган шахс ҳам қўлга олинди.

– Хизмат самарадорлигига эришишда ходимлар малакасини ошириб бориш катта аҳамиятга эга,

– дейди Қорақалпоғистон Республикаси ИИБ ЖХХ ЖТСБ Кинология бўлинмаси бошлиғи, подполковник Руслан Утеулиев. – Шу боисдан, кинолог ходимлар режа асосида ташкил этиладиган ўқув курсларида доимий малака ошириб келишмоқда. Хусусан, яқинда 15 нафар кинологлар ўзларига бириктирилган жониворлар билан хизмат итлари питомнигида ташкиллаштирилган ўқув курсида қайта тайёрловдан ўтди. Шунингдек, кинологлар учун методик қўлланма тайёрланиб, ҳудудий ИИБларга тарқатилди. Мазкур ишлар натижасида ҳудудларда юз берган одам ўлдириш, ўғрилик, босқинчилик, гиёҳвандлик ва бошқа жиноятларнинг аксарияти кинологлар кўмагида очилишига муваффақ бўлинди.

Шунингдек, соҳа фидойилари республика ҳудудида ўтказилаётган «Қорадори – 2023» кенг қамровли тадбирида фаол иштирок этиб, гиёҳвандлик воситалари билан боғлиқ кўплаб жиноятларнинг фош этилишига ҳисса қўшишмоқда.

Азамат ПИРНИЯЗОВ,
ўз мухбиримиз.

Қорақалпоғистон Республикаси.



Маҳалла бешлиги

«ҚИЗИЛ» ТОИФАДАГИ ҲУДУДЛАРНИ КАМАЙТИРАМИЗ!
муаммолар, ечимлар ва таклифлар

Жорий йилнинг 27–28 июль кунлари давлатимиз раҳбари Фарғона вилоятида бўлиб ўтган Ички ишлар вазирлигининг кенгайтирилган ҳайъат йиғилишида иштирок этиб, ҳуқуқ-тартибот соҳасидаги ишлар аҳволини яхшилаш борасида масъулларга бир қатор вазифалар берган эди.

Давлатимиз раҳбарининг ушбу йиғилишдаги кўрсатмасига асосан вилоятдаги криминоген вазият шахсан вилоят ҳокими Хайрулло Бозоров, вилоят ИИБ бошлиғи, генерал-майор Азизбек Икромов ҳамда вилоят сектор раҳбарлари томонидан ҳудудлар кесимида муокама қилинмоқда.

Фарғона шаҳридаги «Тадбиркорлар уйи»да ўтган дастлабки учрашувда Фарғона ва Марғилон шаҳарлари, Фарғона тумани ҳокими ва сектор раҳбарлари, маҳалла раислари ҳамда профилактика инспекторлари иштирок этди.

– Ҳамма бирлашса, маҳалладаги «бешлик» аъзолари жипслашса, аҳоли бандлиги таъминланса, жамоатчилик огоҳ ва ҳушёр бўлса, масъуллар масъулиятни ҳис қилса, жиноятчиликка барҳам берилади, – деди вилоят ҳокими ўз сўзида.

Йиғилишда ҳудудлардаги криминоген вазият атрофлича таҳлил қилиниб, жорий йилнинг етти ойи давомида содир этилган ўғрилик, фирибгарлик, оғир тан жароҳати етказиш, қотиллик билан боғлиқ жиноят турлари бирма-бир, «қизил»,

«сарик», «яшил» тоифаларга ажратилган маҳаллалар кесимида кўриб чиқилди. Ҳолат бўйича секторлар раҳбарларининг ҳисоботлари тингланди.

Жиноятчилик кўрсаткичлари юқори бўлган маҳалла фуқаролар йиғинлари раислари ва профилактика инспекторлари ҳам вазиятни ўнглаш учун амалга ошираётган чора-тадбирлари ҳақида маълумот бердилар.

Аксарият ҳолатларда масъулларнинг бепарволиги ва лоқайдлиги, жойларда маҳалла «бешлиги» фаолиятида бирдамлик, ҳамжиҳатлик етишмаслиги жиноятчиликни жиловлашдаги асосий тўсиқлардан бири бўлаётганлиги қайд этилди. Мулоқот давомида иштирокчилар жойларда жиноятчилик ортишига сабаб бўлаётган муаммоларни айтиб ўтиб, уларни бартараф этиш юзасидан ўз таклифларини билдиришди.

Худди шу мавзуда ўтказилган иккинчи учрашувда Қувасой шаҳри, Қува, Тошлоқ, Ёзёвон туманлари масъуллари қатнашди. Унда давлатимиз раҳбари ташаббуси билан



маҳалла фуқаролар йиғинларида маҳалла раиси, ҳоким ёрдамчиси, хотин-қизлар фаоли, ёшлар етакчиси ҳамда профилактика инспекторидан иборат яхлит бир тузилма яратилганлиги, уларнинг ҳамкорликдаги самарали фаолияти жиноятчиликни жиловлашда энг муҳим омил эканлиги таъкидланди. Аммо бу борада барча маҳаллаларда ҳамкорлик тўғри йўлга қўйилмаётгани танқид қилинди.

Учрашувда вилоят раҳбарлари «қизил» тоифадаги маҳаллаларда

ишлаётган раис ва профилактика инспекторлари билан тўғридан тўғри мулоқот ўтказди. Амалиётда учраётган муаммоларни бартараф этиш чоралари, шунингдек, ўзлари хизмат қилаётган ҳудудлар ва тажрибаларидан келиб чиқиб, ҳамкорликдаги ишларни сифат жиҳатидан яхшилаш борасидаги аниқ таклифлари ўртага ташланди.

Абдусит СИДИҚОВ,
ўз мухбиримиз.

Фарғона вилояти.



Ислохотлар амалда

ИНСОНПАРВАР СИЁСАТНИНГ АМАЛИЙ ИФОДАСИ

Инсон учун ҳамisha унинг ҳуқуқи, эркинлиги ва қонуний манфаатларидан муҳим қадрият бўлмаган. Мамлакатимизда айнан бу борада кенг қўламли демократик ислохотлар амалга оширилмоқда.

Ҳар йили билиб-билмай жиноят кўчасига кириб қолган, ўз қилмишидан чин кўнгилдан пушаймон бўлган, тузалиш йўлига ўтган фуқаролар давлатимиз раҳбарининг тегишли фармони асосида афв этилиб, жазони ижро этиш муассасаларидан муддатидан олдин озод қилинмоқда. Уларга ўз хатоларидан

тегишли хулоса чиқариб, тўғри ҳаётга қайтиши, ҳалол меҳнати билан юртимиз тараққиётига ҳисса қўшишга имкон бериляпти. Бу халқимизга хос кечиримлилик, бағрикенглик сингари улуғ фазилатларимиз бардавомлигидан далолатдир.

Ватанимиз мустақиллигининг 32 йиллиги арафа-

сида бу анъана яна давом этди. Президентимиз томонидан «Жазо муддатини ўтаётган, қилмишига чин кўнгилдан пушаймон бўлган ва тузалиш йўлига қатъий ўтган бир гуруҳ шахсларни афв этиш тўғрисида»ги фармон имзоланди. Унга мувофиқ, жазо муддатини ўтаётган 286 нафар шахс афв этилди. Бу эса давлатимиз томонидан олиб борилаётган инсонпарварлик сиёсатининг яна бир амалий ифодаси бўлди, дейиш мумкин.

Афв этилган шахсларнинг 109 нафари асосий жазодан батамом халос қилинган бўлса, 116 нафари жазони ўташдан муддатидан илгари шартли равишда озод этилди. 25 нафарининг озодликдан маҳрум этиш жазоси энгилроқ жазо билан алмаштирилди. Шунингдек, 36 нафар

шахсга тайинланган озодликдан маҳрум этиш жазосининг муддати қисқартирилди.

Қайд этиш жоизки, афв этилганларнинг 39 нафари аёллардан, 22 нафари эса 60 ёшдан ошган эркаклардан иборат. 30 нафари чет давлат фуқаролари, 3 нафари тақиқланган ташкилотлар иштирокчилари ҳисобланади.

Фармон ижроси юзасидан афв этилган шахсларни оиласи ва яқинлари бағрига қайтариш, ижтимоий ҳаётга мослашиб, фойдали меҳнат билан шуғулланиши, соғлом турмуш тарзини шакллантириб, жамиятда муносиб ўрин эгаллаши учун уларга барча амалий ёрдамларни кўрсатиш бўйича масъул вазирлик



ва идораларга тегишли топшириқлар берилди.

Бағрикенглик ва инсонпарварлик ғояси билан йўғрилган мазкур ҳужжат жамиятимизда инсон, унинг ҳаёти ва эркинликлари энг олий қадрият эканлигининг яна бир тасдиғидир.

Фарҳод АШМАТОВ,
Ўзбекистон
Республикаси
Олий Мажлиси
Қонунчилик палатаси
депутати.



■ Хоразм вилояти

«ЯШИЛ ҲУДУД»ДАГИ ҲАМКОРЛИК

Хонқа туманидаги «Ватанпарвар» маҳалласида жиноят ва ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш, аҳолининг ҳуқуқий билимини ошириш, бандлигини таъминлаш, ёшларнинг таълим жараёнидаги иштирокини назорат қилиш каби кўплаб масалалар кенг жамоатчилик вакиллари ҳамкорлигида амалга оширилмоқда. Айниқса, муқаддам судланган, жиноят содир этишга мойил шахслар билан мунтазам равишда профилактик суҳбатлар олиб бориш, уларни ишга жойлаштириш, нотинч оилалардаги муаммоларни ўрганиш ва ижобий ҳал этишга алоҳида эътибор қаратиляпти.

– Жорий йилнинг ўтган даврида ҳуқуқбузарлик содир қилишга мойил 12 нафар шахс профилактик ҳисобга олинди. Бир нафар фуқарога нисбатан маъмурий назорат ўрнатилди, – дейди туман ИИБ ҲПБ профилактика катта инспектори, капитан Сухроб Ибрагимов. – Тазйиқ ва зўравонликка учраган 2 нафар хотин-қизга ҳимоя ордери берилди. Ажрим ёқасига келиб қолган 6 та оилада соғлом муҳит яратилди. Шунингдек, фуқаролар томонидан билдирилган 31 та мурожаат тегишли тартибда ўрганиб чиқилиб, ижобий ҳал қилинди. Ҳамкорликдаги профилактик тадбирлар натижасида ҳудудда жиноят содир этилишига йўл қўйилмади ва маҳалла «яшил ҳудуд» сифатида эътироф этилди.

Кейинги пайтда маҳаллада чорвачилик, қоракўлчилик, ба-



ликчилик, боғдорчилик ҳам сезиларли даражада ривожланди. Иссиқхоналар қурилди. Миллий ҳунармандчиликка кенг йўл очилди. Натижада аҳолининг аксарият қисми ижтимоий фойдали меҳнат билан банд бўлди. Бундай ижобий кўрсаткичларга эришишда маҳалла фуқаролар йиғини раиси Баҳодир Болтаев, профилактика катта инспектори, капитан Сухроб Ибрагимов, ҳоким ёрдамчиси Акмал Жуманиёзов, хотин-қизлар фаоли Наргиза Жабборова ва ёшлар етакчиси Машарип Ражабовнинг ҳиссаси катта бўлди.

Ҳамкорлик ва ҳамжиҳатлик ҳар қандай муаммони ижобий ҳал этишда муҳим аҳамиятга эга. Шу боис, маҳалла бешлиги томонидан «Обод ва хавфсиз ҳудуд» тамойили асосида ҳар бир хонадонда бўлиб, фуқароларнинг турмуш тарзи ва яшаш шароити синчковлик билан ўрганиб борилмоқда. Бунинг самараси ўлароқ, маҳаллада осойишталик ҳукм суриб, аҳоли турмуш тарзида ўсиш, юксалиш кузатилмоқда.

Худойберган ЖАББОРОВ,
ўз мухбиримиз.

✓ Молодежь – наше будущее

ОПРЕДЕЛИЛСЯ С ВЫБОРОМ ПРОФЕССИИ

Молодежь представляет собой будущее общества, становится основным созидателем, несет ответственность за становление сильного, стабильного и процветающего государства.

Нажмиддин Алиев не думал, что станет сотрудником органов внутренних дел. После срочной службы в Вооруженных Силах страны, он решил продолжить службу по контракту. Но родители не дали согласия, ведь военнослужащих могут отправить служить в любой регион, а Нажмиддин был младшим сыном в семье и его сыновний долг – быть вместе с родителями.

Тогда молодой человек решил стать сотрудником органов внутренних дел. В 2020 году его приняли в группу патрульно-постовой службы на станции «Асака» отделения обеспечения безопасности на объектах транспорта.

Его учителем и наставником стал сержант Нуриддин Чандиев, который отнесся к молодому сотруднику, как к млад-



шему брату. Передавал опыт, делился секретами службы.

Сегодня рядовой Алиев бдительно несет службу на железнодорожной станции «Асака» и грузовой станции «Ахтачи».

– Работа ответственная, – говорит Нажмиддин. – Стоит задача – обеспечивать общественный порядок на пассажирской и грузовой станциях, пресекать любые попытки

правонарушений, не допускать хищений.

Кроме того, на вверенном ему объекте ведется контроль проезда автотранспорта на железнодорожных переездах, не допускаются выпас домашних животных и игры детей на путях.

Стремление двигаться вперед – одно из главных качеств молодого сотрудника. Он является студентом второго курса заочного отделения Наманганского инженерно-технологического института. В будущем мечтает стать офицером.

Молодежь является главным движущим фактором развития страны. Их энергия, творческий потенциал и желание изменить мир играют важную роль в формировании будущего нашей страны. Молодежь – основа будущего Узбекистана. И нам необходимо поддерживать создавая условия для их самореализации и профессионального роста.

Борис КЛЕЙМАН.
соб. корр.

Андижанская область.

■ Сырдарьинская область

НАВЕЧНО В ПАМЯТИ НАРОДНОЙ

В дни празднования 32-й годовщины государственной независимости руководство ОВД города Гулистана навестило семьи сотрудников, погибших при исполнении служебных обязанностей.



Служба в органах внутренних дел, в частности, обеспечение правопорядка и общественного спокойствия сопряжена с ситуациями, когда выполнение задания может стоить не только здоровья, но и жизни сотрудника. Именно в

таких ситуациях проявляются верность долгу и профессионализм.

Лейтенант Улугбек Ваккосов был именно таким человеком. Он родился в 1969 году в Джизакской области. Полтора десятка лет работал инспекто-

ром в группе ООП ОВД города Гулистана. Его отличали искренность, добросовестность, отзывчивость, стремление помочь каждому, кто попал в трудную ситуацию. Улугбек всегда стремился быть среди людей, жил заботами граждан. Это позволяло быть в курсе всех новостей на вверенном участке, оперативно раскрывать преступления по горячим следам. Его часто ставили в пример остальным сослуживцам.

В 1999 году при выполнении очередного задания лейтенант Улугбек Ваккосов погиб в ДТП. В настоящее время члены его семьи живут в городе Гулистане. Сотрудники городского отдела внутренних дел, навестившие родных Улугбека, почтили память сослуживца, вспомнили эпизоды из его жизни и службы, которые и сейчас являются примером для молодых коллег.

Также не были оставлены без внимания семьи других сотрудников органов внутренних дел, до конца сохранивших преданность профессии. Всем им оказана социальная поддержка.

Соб. корр.



Статья 57.

Права нетрудоспособных и одиноких престарелых, лиц с инвалидностью и других социально уязвимых категорий населения находятся под защитой государства.

Государство принимает меры, направленные на повышение качества жизни социально уязвимых категорий населения, создание им условий для полноценного участия в общественной и государственной жизни и расширение их возможностей самостоятельно обеспечивать свои базовые жизненные потребности.

Государство создает условия для полноценного доступа лиц с инвалидностью к объектам и услугам социальной, экономической и культурной сфер, содействует их трудоустройству, получению образования, обеспечивает возможность беспрепятственного получения необходимой им информации.



MA'RIFAT BO'STONI

SUKUNATNI TINGLAY BIL yoki ogoh, ziyrak bola

Bir kuni pichanxonani aylanib yurgan chorvador otasidan yodgor bo'lib qolgan soatini yo'qotib qo'yibdi. Uni uzoq izlabdi, hamma yoqni tintib chiqibdi, lekin urinishlari naf bermabdi. Axiyri holdan toyib, tashqariga chiqsa, nariroqda o'ynab yurgan bolakaylarga ko'zi tushibdi. Ularni yoniga chaqirib, pichanlar orasidan soatini topib berganga mukofot va'da qilibdi.

Buni eshitgan shumtakalar pichanxonaga to'dalashib chopib kirishibdi. Hamma yoqni «boshdan-oyoq» tekshirib, baribir soatni topa olishmabdi. Chorvador umidini uzay deb turganda, bolalardan biri unga yana bir imkoniyat berishni so'rabdi. Faqat bu vaqtda pichanxonaga hech kim kirmasligi lozimligini aytibdi. Haligi kishi uning samimiy chehrasiga boqib, rozilik bildiribdi.

Bir muddatdan so'ng qo'lida soat bilan chiqqan bolakayni ko'rgan fermer hayratdan og'zini ochib qolibdi. Quvonch va qiziqish hissi jo'sh urib, boladan bu ishni qanday uddalaganini so'rabdi. Shunda «Hech narsa qilmadim. Shunchaki o'tirib sukunatni tingladim. Atruf jimjit bo'lganida soatning chiqillagan ovozini eshitdim va shu tomonga borib, soatni izlab topdim», degan javobni olibdi.

QO'SHNICHILIK

Bir bolakay onasi qo'shnidan ozgina tuz so'raganini ko'rib qolibdi. Uyida hamma narsa yetarli ekanini bilgan o'g'il hayron bo'lib volidasidan so'rabdi:

– O'yijon, uyimizda tuz bor-ku, nega qo'shnidan so'ratingiz?

Shunda onasi javob beribdi:

– Ularning moddiy sharoiti biroz og'irroq. Bilasan, ora-sira bizdan ul-bul olib turishadi. Ro'zg'origa zarar keltirmaslik uchun ulardan arzimasa narsa so'radim. Shu orqali qo'shni bizga yordami tekkanini his qildi. Keyingi safar yana biron narsa zarur bo'lib qolganida, biznikiga chiqishga xijolat bo'lishmaydi.

BUNI HECH KIM BILMASIN

Bir otlig dala bo'ylab ketar ekan, yo'l chetida hushsiz yotgan bir odamga ko'zi tushibdi. Ot mingan kishi unga yordam berib, shahargacha eltib qo'yishga qaror qilibdi. U yerda yotgan kimsani arang ko'tarib, ot ustiga mindiribdi. Shunda haligi kishi kutilmaganda ko'zlarini ochib, shartta gavdasini o'nglab olibdi va otga qamchi bosibdi.

– Qayoqqa? – deya baqiribdi yaxshilik qilmoqchi bo'lgan inson.

– Otingdan judo bo'lding, – javob qaytaribdi haligi kishi. – Seni chuv tushirdim. Men aslida ot o'g'risiman.

– Mayli, otimni olaqol. Faqat bir iltimosim bor: bu haqda hech kimga og'iz ochma.

– Nima, aldanganingni bilib qolishlaridan qo'rquyapsanmi? – uning ustidan kulibdi o'g'ri.

– Yo'q. Agar odamlar bundan darak topishsa, yo'lda behush yotgan kishilarga yordam qo'lini cho'zmay qo'yishadi.

SO'NGGI PUSHAYMON...

Kunlardan birida kar, soqov va so'qir:

– Ey Xudo, biz soppa-sog' tug'ilgan edik, nega endi vaqt o'tib, bu baxtsizlikni bizga ravo ko'rding, – deb nola qilibdi. Buni eshitgan Taqdir jim tura olmabdi.

– Senga, – debdi u karga qarab, – bu kamchilik o'zingdan boshqa hech kimni tinglashni istamaganing uchun nasib qilgan. Endi sen hech kimni eshitmaysan va bundan keyin faqat o'z fikr-o'ylaringga bemalol quloq tutishga hech kim xalaqit qilmaydi.

– Sen, – deya murojaat qilibdi u ko'rga, – o'z ehtiyojlarindan boshqa hech narsani ko'rishni istamasding. Mana endi ko'rishni xohlamagan narsalarni ko'rish uchun ortiqcha kuch sarflab o'tirmaysan.

– Senga esa, – deya davom etibdi u soqovga qarab, – jim turish imkoniyati berildi, chunki hech kimga quloq solmay, gap bermay qo'yganding. Shunday qilib, hammangiz istagan maqsadingizga erishdingiz. Nega endi quvonish o'rniga, g'amga botib o'tiribsiz?

Baxtiqarolar javob bera olishmabdi. Ularning hech biri o'zi uchun baxt bo'lib ko'ringan jihat vaqti kelib dard-alamga sabab bo'lishini ilgari xayoliga ham keltirmagandi.

Shuni unutmazlik kerakki, insonga quloq tinglash va eshitish uchun, ko'zlar ko'rish uchun, til esa muloqot qilish, boshqa odamlarning nutqi orqali ularni tushunish uchun berilgan.

INSONLAR KITOB KABI

* Ertaga qoqilishni istamasang, bugun yolg'on yo'lga qadam bosma.

* Dono kishi hamma narsani faqat o'zidan talab qiladi, nodon esa – atrofdagilardan.

* Mix devorga qanchalik chuqur qoqilsa, shuncha og'ir yukni ko'tara oladi. Borliqni qancha chuqur anglasang, qiyinchiliklarga shunchalik bardoshli bo'lasan.

* O'zingni doim nima bilandir band et, chunki bu yer yuzidagi eng arzon va eng samarali doridir.

* Odamlar ularga bo'lgan munosabatni o'zgartirganingni darrov payqashadi, biroq bunga ularning biron gap-so'zi yoki xulq-atvori sabab bo'lganini xayoliga ham keltirishmaydi.

* Insonlar kitob kabi. Xuddi shunday harflar-

dan tuzilgan, biroq mazmun-mohiyati turlicha.

* Xotirjamlikni soatdan o'rgan. U hatto orqada qolsa ham, hech qayerga shoshmaydi.

* Shamol yer yuzidagi eng badavlat havo oqimidir. Chunki odamlar unga mehr-muhabbatini, pulini, so'z va umidlarini sovradi.



– O'zimni juda baxtsiz his etyapman. Hech baxtli hayotga erisha olmayapman. Aftidan, yomon odam bo'lsam kerak, – nolibdi shogird ustoziga.

– Sen yomon inson emas-san, shunchaki, biroz o'zgarish kerak.

– Qanaqasiga? Agar yomon bo'lmasam, unda nega o'zgarishim kerak?

KAMCHILIKLAR FAZILATGA AYLANSIN

– Kel, yaxshisi, buni senga amalda ko'rsatib beraman, – tabassum qilibdi ustoz.

U shogirdining qo'lga bir nay tutqazib, istalgan kuyni chalib berishini so'rabdi. Yigit nay chalishni bilmasa-da, uni asta lablariga yaqinlashtirib, teshiklarini birma-bir berkitganicha puflay boshlabdi. Hushtaksim va xirillagan tovushdan boshqa hech bir kuy chiqmabdi.

– Ko'rdingmi, nima bo'ldi?

– debdi ustoz. – Agar sen uni chalishni o'rganib olsang, kuy butunlay o'zgacha va yoqimli ohang hosil qiladi. Qani, aytchi, nima o'zgaradi? Nay ham, qo'llar ham, puflash kuchi ham o'sha-o'sha, hatto chalgan ham yana sen bo'lasan. Lekin u ko'ngillarga huzur baxsh etuvchi, shifo ulashuvchi va ruhni yengillatuvchi tamoman

boshqa musiqaga aylanadi. Nimaiki zarur bo'lsa, hammasi senda bor. O'z fikr-o'ylaring va irodangni uyg'un tarzda boshqarishni o'rgansang, ular qalbing bilan hamohang ravishda «harakat qiladi». Shuni bilki, kamchiliklar bu – aslida sen hali foydalanishni o'rganmagan fazilatlardan boshqa narsa emas.

Sahifani Gulchehra AZIMOVA tayyorladi.



«TELEFONXAT» yoxud ijtimoiy tarmoqlar «uslub»


Yaqinda o'g'limning uyali telefoniga kelib tushgan SMS xabarnomani o'qiguncha ancha xunob bo'ldim. Matn shu darajada ajabtovur yozilganki, na lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosida, na kirill yozuvida bunday harflar mavjud: «Menga mansurni buvisi shaxarga kocib ketik db etlla, ewtiwimca endi keliwmaskan».

Matnni bir amallab o'qidim-u, hali o'rta maktabda o'qiyotgan, savodi nazorat ostida bo'lgan o'quvchining bu darajada g'ij-g'ij imlo xatolari bilan yozishining sababiga qiziqdim. Anglaganim shu bo'ldiki, yoshlar bir-biriga yuboradigan SMS xabarnomalarida imlo qoidalariga amal qilmas, o'zlari uchun yaratib olgan «telefonxat» uslubida yozisharkan.

Ko'cha-ko'yidagi e'lonlar, reklama peshlavhalaridagi xatolarga-ku ko'nikib ketganmiz, go'yoki bunday mayda kamchiliklar bosh qotirishga ham arzimaydigandek. Qolaversa, savdo-sotiq, biznes sohasi vakillarining savodxonlik darajasini kim ham tekshirib o'tirardi?! Ana, yuqori tashkilotlarga yuboriladigan xatlarining qanchasi xato, qizil siyohli ruchkada tekshirsang, «lolazor» bo'lib ketadi...

Gap shundaki, imlo xatolariga ko'z yumaversak, mulohaza qilishga arzimaydigan kichik masala deya panja orasidan qarayversak, bu ijtimoiy me'yorga aylanadi, ona tiliga nisbatan hurmat pasayadi, savodsizlik ortib boraveradi.

Telegram ijtimoiy tarmog'ida o'qituvchilar va o'quvchilarning muloqot guruhini kuzatib, «hayratim» battar oshdi. Unda o'qituvchi og'zaki nutqni yozma nutq bilan chalkashtirib, shevada, kamiga xatolar bilan yozishiga nima deysiz! Bu o'quvchilar uchun yaxshigina «o'rnak» bo'lishi aniq. Ziyoli, o'zini hurmat qilgan odam har qanday



holatda ham imlo xatolariga yo'l qo'ymasligi kerak.

Aslida internet hayotimizga kirib kelganidan so'ng, tilimizdagi so'zlashuv, rasmiy, ilmiy, badiiy uslublar qatoriga «ijtimoiy tarmoqlar uslub» ham kirib keldiki, tarmoq kuzatuvchilarining katta qismi o'zlari yaratgan qoidalarga asosida, ajnabiy so'zlar ishtirokida, shevalar va jargonlarni qorishtirib, imlo qoidalarini istagancha buzmoqdalar. Ijtimoiy tarmoqdagi sahifalarga o'z ismlarini kichik harfda, xato yozayotgan foydalanuvchilarning ko'pligi dilni xira qiladi!

Bu illatlar qatoriga bir-birini

haqorat qilish, qoralash va janjalga aylanib ketayotgan bahs-munozaralarni qo'shib hisoblasak, millatimizning asliyatiga xos bo'lmagan unsurlarning urchiyotganidan xavotirga tushasan kishi. Millatimiz bolalari bugun «internet tili»da so'zlashib, shu muhitda fikrlasalar, ilm olishdan, mutolaadan uzoqlashib ketaversalar, ertaga ularning o'rniga boshqalar qaror qabul qiladi. Ehtimol, bugun arzimasek ko'ringan bu muammo ona tilimiz ildiziga urilayotgan bolta, sha'nimizga o'qalayotgan musht – o'zligimizni taftish qilish uchun bir ishoradir.

Umida SAPAROVA.



IKKI YORTI – BIR BUTUN

Bu maqolni ko'pincha dehqonlar tuyshak qilganlarida aytganlar. Tuyshak shunday bo'ladi: aytaylik, bir dehqonning bir ho'kizi bor. Yer haydash uchun esa ikki ho'kiz kerak. Shunda u o'ziga o'xshagan yakka ho'kizlik dehqon bilan bitishadida, ho'kizni juft qilib, yerini haydab oladi. Keyin u dehqon ham buning ho'kizidan foydalanib, yerini haydab oladi. Shunday qilib, ikkalasining ham ishi bitadi. Majoz: bir odam muayyan ishning bir tomonini biladi-yu, bir tomonini bilmaydi. Ikkinchi odam esa buning aksicha, ishning u tomonini biladi-yu, bu tomonini bilmaydi. Demak, ikkalasi ham «yarimta» odam. Agar ular qo'shilishsa, bir butun bo'lib, ishni bitkazishadi. Maqolning zamirida kishilarni birlashishga, hamkorlikka da'vat etuvchi fikr yashiringan.

ILM KO'P-U, UMR OZ, KERAGIN OL-U, TOSHGA YOZ

«Olamning keti yo'q, bilimning cheki yo'q»; «Ilm ko'p, umr oz, zarurini o'qil!» deb ham qo'llanadigan mazkur maqol bilan: «Dunyoda ilm haddan tashqari ko'p, kishining umri esa cheklangan. Shunday ekan, hamma bilimlarni ham egallayman, deb ovora bo'lmayoq qo'yaqol, baribir bunga erisha olmasan, bunga sabr-u bardoshing ham, vaqting ham, umring ham kifoya qilmaydi. Ilmlar orasidan o'zingga keragini, o'z hayotiy maqsadingga mos keladiganini tanlagin-da, uni puxta egalla, toki o'qib o'rgangan, bilgan narsalaring, xuddi toshga o'yilgan yozuvdek, miyanga abadiy o'rnashib qoladigan bo'lsin», degan ma'noda nasihat qiladilar.

YIG'LAGAN KO'ZGA – YOSH, TILAGAN OG'IZGA – OSH

Bu maqolni: «Dunyoda har kim tilak-istagiga erishmay qolmaydi. Buning uchun u kurashsa, intilsa, harakat qilsa bas», degan ma'noda qo'llaydilar.



FAXRIYLAR SHOHSUPADA

Eng ulug' va eng aziz bayram – Istiqlolimizning 32 yilligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar tizimi faxriylari o'rtasida futbol bo'yicha «Mustaqillik kubogi – 2023» musobaqasi bo'lib o'tdi. Unda Mudofaa, Ichki ishlar va Favqulodda vaziyatlar vazirliklari, Davlat xavfsizlik xizmati, Davlat Bojxona qo'mitasi va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlar faxriylari o'zaro g'oliblik uchun kurash olib bordi.

Musobaqada Ichki ishlar vazirligi faxriylarining «Posbon» jamoasi munosib qatnashib, faxrli birinchi o'rinni egalladi. Bundan tashqari, jamoa a'zolari – iste'fodagi polkovnik Shuhrat Yuldoshev «Eng yaxshi darvozabon», iste'fodagi serjant Sherzod Sultonov «Eng yaxshi himoyachi», iste'fodagi podpolkovnik Jamshid Hamroyev va iste'fodagi safdor Najmiddin Mirzayev «Eng yaxshi yarim himoyachi», shuningdek, iste'fodagi podpolkovnik Baxtiyor Salimov «Eng yaxshi hujumchi»

nominatsiyasi g'oliblari sifatida e'tirof etildi.

– Sport hayotimizning ajralmas qismi, – deydi IIV Faxriylar kengashi a'zosi, iste'fodagi polkovnik O'tkir Ahmedov. – Shu ma'noda, bu kabi musobaqalar biz, faxriylarning kuchiga kuch, g'ayratiga g'ayrat qo'shmoqda. Bundan ko'zlangan maqsad, albatta, ommaviy sport turlarini targ'ib qilish va yoshlarga har tomonlama o'rnak bo'lishdan iboratdir.

O'z muxbirimiz.



KUZGI TUSHKUNLIK NIMA?

Kuz boshlanishi bilan ko'pchilik yomon kayfiyat, uyqusizlik, xavotirning kuchayishidan shikoyat qiladi. Shuningdek, surunkali kasalliklarning kuchayishi kuzatiladi. Immunitet zaiflashadi, shamollash, migren va bel og'rig'i, ishtaha buziladi, charchoq paydo bo'ladi, bo'shliq va umidsizlik hissi paydo bo'ladi. Bu mavsumiy tushkunlik holatidir. IIV Markaziy poliklinikasi psixiatr shifokori Ranu Nuritdinova tavsiyalari aynan shu xususida:

– Kuzgi depressiya odatiy tushkunlik bilan ko'pincha umumiy xususiyatlarga ega, faqatgina kuzda sodir bo'lishi bilan farqlanadi. Aynan shu davrda kunlar qisqaradi, tabiiy ranglar so'nib, quyosh nuri kamayib sovuq kunlar, yomg'ir mavsumi boshlanadi. Bularning barchasi inson tanasida ijobiy kayfiyat va jismoniy faollikni yaxshilash uchun javob beradigan gormon serotonin yetishmasligiga olib keladi.



Mavsumiy tushkunlik – bu beqaror psixo-emotsional o'tkinchi holat. Uning alomatlari befarq kayfiyat, asta-sekin surunkali holga keladigan charchoq (dam olish muammoni hal qilmaydi, «zaiflik» holati uyqudan keyin ham saqlanib qoladi), zerikish hissi, uyqusizlik (shu jumladan kechasi tez-tez uyg'onish), sezgirlilik, kuchli bosh og'rig'i, sog'lom ishtahaning yetishmasligi, mushaklarning tortilishi va butun tanadagi sababsiz og'riqlar, oshqozon va ichak faoliyatidagi buzilishlar, g'azab va asabiylikning keskin va kutilmaganda paydo bo'lishi bilan kechadi. Ko'pincha depressiya holatida odamlar nevrolog, endokrinolog, kardiologga murojaat qilishadi. Aslida bunday vaziyatda odam o'zidagi ruhiy o'zgarishlarni tan olishi va psixolog yoki psixoterapevtga murojaat etishi lozim.

Qanday kurashish kerak?

E'tibor qaratish kerak bo'lgan eng muhim narsa bu ovqatlanishdir. Ko'p miqdorda meva va sabzavotlar,

shuningdek, serotonin ishlab chiqarishni rag'batlantiruvchi – banan, sitrus mevalar, xurmo, shuningdek, oqsilga boy go'sht va sut mahsulotlarini iste'mol qilish lozim. Shokolad – eng zo'r antidepressant, kuniga bir bo'lak shokolad iste'mol qilish, yaxshi kayfiyat tonusini ushlab tura oladi.

Choy va qahvani o'simlik damlamalari bilan almashtirish maqsadga muvofiqdir. Na'matak, yalpiz kabi o'tlardan tayyorlangan qaynatmalar ham yomon kayfiyat bilan kurashishga yordam beradi. Bu o'tlarning foydali xususiyatlari asab tizimiga va umumiy farovonlikka ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Jismoniy faollik, xususan, yengil yugurish, yurish, sport zalida mashq qilish juda samarali bo'ladi. Suv ham tanaga taskin beruvchi ta'sir ko'rsatadi, shuning uchun iloji bo'lsa basseyngga borish kerak. Agar buning imkonini bo'lmasa, uyda kon-

trastli dushdan foydalanish mumkin. Toza havoda, quyoshda imkon qadar ko'proq vaqt o'tkazish kerak. Uyda va ishda yoritishni kuchaytirish kerak. Uyqu, uyg'onish vaqtini rejimga solish, kuniga kamida 8 soat uxlash kerak. Qisqa kunduzgi uyqu, yarim soatdan oshmasligi zarur.

Sevimli kitoblarni kamida yigirma daqiqa o'qish lozim. Bir kun ommaviy axborot vositalarini unutish va ulardan ozod bo'lish miyani har xil keraksiz ma'lumotlardan xoli qiladi. Shuningdek, komediyalar tomosha qilish, yaxshi ko'rgan insonlar bilan muloqot qilish, hazil qilish va kulish foydalidir. Chunki kulgi stress gormonlari – adrenalin va kortizon ishlab chiqarishni to'xtatadi. Hazil tuyg'usini yo'qotmang, tushkun kuz kayfiyatiga berilmaslikka harakat qiling!

Gulnoza TURG'UNBOYEVA yozib oldi.

ЛОМИТ КОСТИ НА ПОГОДУ...

У некоторых людей при смене погоды начинает ломить тело. Это может быть симптомом различных заболеваний. Так проявляется ревматоидный артрит или артроз, радикулит и остеохондроз, травмы позвоночника и смещение позвонков.



Мы склонны любую боль по возможности сразу блокировать. Обезболивающее помогает убрать неприятные ощущения, но оно не лечит болезнь. Определить причину ломоты в теле поможет врач.

Если на погоду ломит кости, пожалуйста, не терпите и не заглушайте эти сигналы таблетками. Болью организм пытается сигнализировать, чтобы вы приняли меры и начали лечение.

ЕСЛИ ВЫПАДАЮТ ВОЛОСЫ



Ежедневное выпадение части волос является физиологическим процессом, который происходит по причине смены фаз роста и обновления клеток кожи.

Но что делать, если выпадение заметно усилилось, а волос стало в разы меньше?

В первую очередь, укрепление

волос и их рост зависят от попадания в организм в достаточном количестве полезных микроэлементов.

Постарайтесь включить в рацион питания:

яйца – источник белка и биотина. Эти элементы способствуют укреплению волосяных фолликулов;

жирную рыбу – в большом количестве содержит кислоты омега-3, белки и антиоксиданты;

морковь – богата витамином А, который важен для здоровья кожи головы. Более того, бета-каротин благотворно влияет на состояние кожи;

бобовые – много растительного белка, цинка, фолиевой кислоты, которые служат питанием для фолликулов.

ЗАЧЕМ ПРОМЫВАТЬ НОС ВО ВРЕМЯ ПРОСТУДЫ

Процедура позволяет удалить слизистые выделения вместе с загрязнениями, аллергенами, бактериями и вирусами, уменьшить отек и выраженность воспаления, улучшить тонус сосудов и работу клеток слизистой оболочки. Таким образом удастся повысить защитные свойства слизистых и улучшить самочувствие. Облегчает дыхание при ОРВИ. Кроме того, промывания поддерживают здоровье носовых ресничек – волос, растущих в ноздрях. Эти волосы обволакиваются слизью и увлажняют воздух, поступающий затем в носоглотку и легкие, задерживают болезнетворные бактерии и помогают обонянию.



Как облегчить боль в суставах?

Одевайтесь теплее и старайтесь не перемерзнуть.

Поддерживайте здоровый вес, чтобы уменьшить нагрузку на суставы, особенно на колени.

Избегайте чрезмерной нагрузки на суставы во время повседневной деятельности.

Больше гуляйте. Движение согревает организм изнутри. Не забывайте об утренней гимнастике.

Сходите на массаж.

Хорошо высыпайтесь, правильно питайтесь.

Следуя этим простым правилам, вы сможете облегчить дискомфорт в суставах при смене погоды.

Перед применением посоветуйтесь с врачом!

✦ Maftunkor manzillar

AYDARKO'L KENGLIKLARIDA

«UAZ-Xanter» uncha baland bo'lmagan qirlik tepasiga ko'tarilganda, avtoulav ichidagilarning ko'z o'ngida qumliklar osha yastangan bepoyon Aydarko'l namoyon bo'ldi. Yo'ltanlamasni boshqarayotgan safdor Shahriddin Qo'ldoshev har safar ana shu manzarani ko'rganida, yuragini zavq-u shavq to'ldiradi. Shu hududda xizmat olib borayotganligiga 6 yildan oshgan bo'lsa-da, Aydarko'l tabiati har safar qaysidir jihati bilan uni maftun etaveradi.

Darhaqiqat, ortiga quyosh va oyni berkitishga qodir ko'l, unda qo'nim topgan qushlar, suvlarga basma-bas kengliklarni egallashga intilayotgan qumliklar, ana shu poyonsizlikni o'ziga abadiy makon bilgan jonivorlar, buta va o'simliklar har qanday ko'ngillarni rom etmasdan qolmaydi, kishiga unutilmas va sohir tuyg'ularni in'om etadi. Ushbu hislarni tuyish imkonini bergani uchunmi, safdor bu yerga xizmatga jalb etilganidan quvonadi.

Kuz, qish va bahorda yo'llardagi ko'lmaklardan ehtiyot bo'lgan ma'qul. To'planib qolgan suv loyqa va oqish tusda bo'lsa, demakki yaqinda kimdir o'tgan, siz ham yursangiz bo'ladi. Aksincha, qora tusli halqob anchadan buyon bu yerga qadam qo'yilmaganiga ishora. Ya'ni tinch ko'lmakda zamburug'lar urchigan. Ana shu millionlab ko'zga ko'rinmas mavjudotlar qoralik sababi. Bunday tusdagi ko'lmakning chuqurligi yarim-bir metr dan oshishi mumkin.

Ammo bu yerdagi eng katta xavf adashishdir. Chek-chegarasi yo'q, jing'il, quyonsuyak, saksovul kabi butalar hamda turfa o'simliklar qoplagan qumlikda yo'nalishni yo'qotib qo'yish hech gap emas. Shunday joylar borki, bir necha sutka davomida na avtoulav o'tadi, na cho'pon-cho'liqqa ko'zingiz tushadi. Bunday ahvolda adashgan kas kunduzi shamolning esishiga qarab borar manzilini belgilashi kerak, ko'l bo'yida epkinlar odatda g'arbdan sharqqa intiladi. Kechasi esa yetti

qaroqchi yulduzlar turkumining joylashuviga nisbatan yo'nalish olmoq joiz. Harqalay, safdor Shahriddin Qo'ldoshev ana shunday yo'l tutadi.

Odatda boshqa hududdan kelganlar yoki o'lja ortidan quvib, ehtiyotkorlikni unutgan ovchilar hamda haydovchilar adashadilar. Safdor bir yil davomida qumda qolib ketgan 50-60 kishiga yo'l ko'rsatadi, ularning avtoulavini «UAZ-Xanter»i yordamida tortib chiqaradi, o'zlariga ishonmaganlarni manziliga yetkazib qo'yadi. Shu o'rinda aytish kerak, Aydarko'l tevaragidagi qumliklar 50 kilometrgacha cho'zilib ketgan.

Adashish boshqa muammolarni ham keltirib chiqarishi mumkin. Jumladan, ko'l bo'yida ko'p uchraydigan chiyabo'rilar to'dalashib, hujum qilishlari hech gap emas. Shuningdek, qamishzorlarni oralashni yoqtiradigan qobonlar yo'lidan chiqib qolgan odamga tashlanishlari mumkin. Tajovuzkorlik urg'ochi to'ng'izlarga



xos, ular qarshilarida paydo bo'lgan jonzotni bolalariga tahdid sifatida qabul qiladilar. Echkimar ham o'tkir tishlari bilan sog'likka yaxshigina ziyon yetkazishi hech gap emas.

Ammo bu jonivorlardan-da xavfliroq mavjudotlar bor. Inson chiya-bo'ri yo qobonga duch kelganida aqli va kuchiga tayanib, murakkab vaziyatdan chiqishi mumkin. Ammo zax yoki tashlandiq joylardan qo'nim topadigan chayon va qoraqurt chaqsa, oqibati yomon tugaydi. Chunki qumlikdan chiqib, shifoxonaga yetguncha kech bo'lishi mumkin. Shu ma'noda safdor Shahriddin Qo'ldo-



shev ko'l bo'yida uchratgan fuqarolarning tajribasizligini sezsa, ularni mavjud xavflardan ogohlantiradi. Har ehtimolga qarshi avtomashinaning sozligini tekshirishga, qo'shimcha yonilg'i, suv va oziq-ovqat hozirlashga undaydi. Ko'lga cho'milmoq niyatida kelganlarni esa xavfsizlik qoidalariga qat'iy amal qilishga chaqiradi.

Umuman olganda, Jizzax viloyati IIB JXX JTSB patrul-post xizmati batalyoni xodimlarining ushbu manzilda qilar ishlari ko'p. Jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarlik va jinoyatlarning oldini olish, ko'l hamda uning tevaragidagi o'sim-

boshqarish uchun guvohnoma olish, taqiqlangan mavsumlarda baliq tutmaslik, qutqaruv nimchalari kiygan holda ishlash lozimligini tushuntirishdi. Shuningdek, ko'lga dam olish uchun kelganlarga qonun-qoidalarga rioya qilish, jamoat tartibini buzmaslik, tevarakni ifloslantirmaslik zarurligini uqtirishadi. Bu ishni xushmuomalalik bilan amalga oshiradilar. Ya'ni charchoqni yozish, tashvishlarni unutmog istagida kelganlar ko'ngliga ozor yetkazib qo'yishdan tortinadilar.

Aytgancha, mazkur manzilga kelguvchi sayyohlar soni oxirgi 5 yilda keskin ortdi. Shunga yarasha xizmat ko'rsatish sifati ham yaxshilanayotir. Masalan, Arnasoy tumanining «Baxtli» mahalla fuqarolar yig'ini hududida joylashgan «Abubakr» mas'uliyati cheklangan jamiyati rahbari Davlat Qoraqulovga tegishli dam olish maskaniga joriy mavsumda Germaniya, Italiya, Qozog'iston hamda respublikamizning turli hududlaridan mehmonlar kelishgan. 25-maydan noyabr oyiga qadar davom etadigan mavsum davomida kuniga 10 nafardan 50 nafargacha dam oluvchilar kutib olinadi.

Ularga qulay sharoit yaratish maqsadida tadbirkor ko'l bo'yida 10 ta so'ri, 50 o'rinli oshxona qurgan. 3 ta qayiqda ko'lga sayohat tashkil qiladi. «Murod-Mohichehra» mas'uliyati cheklangan jamiyatiga qarashli 100 o'rinli dam olish maskanining sharoitlari ham zamonaviy talablarga javob beradi. Tadbirkor Mahbuba G'ulomova bu yil 17 kilovattli quyosh panellari o'rnatdi. U yaqinda Shveysariya va Rossiyadan kelgan mehmonlar guruhi ni kutib olgan. Ishbilarmon ayol sayyohlarga xizmat ko'rsatish sifati ni yaxshilash maqsadida sayohat qayiq lari sonini 7 taga yetkazmoqchi. Tevarakka 1000 tup pavloniya va sada ko'chatlari ekish niyatida.

Bu o'zgarishlarni o'ylab, safdor Shahriddin Qo'ldoshevning ko'ngliga iliqlik yugurdi. U xizmat orasida bir zum to'xtab, dengizmonand ko'lga tikildi. Hovuchini Aydarko'lning tiniq suvi bilan to'ldirib, yuzini yuvdi. Keyin yo'ltanlamasiga o'tirdi va kalitni buradi. Oq tusli avtoulav qumliklar oralab, xuddi kema singari suza boshladi. Yon oynadan botayotgan quyosh nurida ajib tusda tovlanayotgan va chayqalayotgan ko'm-ko'k ko'l ko'zga tashlanadi...

Alijon ABDUSATTOROV,
o'z muxbirimiz.

Jizzax viloyati.



ДЕТСКИЙ УГОЛОК



«Книги – самые тихие и самые постоянные друзья, они самые доступные и мудрейшие советники, и самые терпеливые учителя.»
Чарльз Уильям Элиот

Школьные истории

Встать, суд идёт!

«В школе у меня была очень строгая учительница математики, которая за несделанное домашнее задание и за нерешенную задачу ставила «2». Поэтому каждый урок для нас был залом суда, где все ученики сидели в роли обвиняемых. В один из дней, когда начался урок, мой одноклассник выдал речь: «Всем встать, суд идёт! Сегодня в роли обвиняемого буду я, так как не сделал домашнее задание. Разрешите сказать последнее слово в свое оправдание». И тут все, включая учительницу, расхохотались...»

Прислала читательница Чолпон.



НА или НАД

НА НАД ЗА ПЕРЕД




Кошка заборе.

Птица забором.

Саша забором.

Мяч забором.




ЗАГАДКИ

Говорит она беззвучно,
А понятно и нескучно.
Ты беседуй чаще с ней –
Станешь вчетверо умней.
(Книга)

Утром мы во двор идём –
Листья сыплются дождём,
Под ногами шелестят
И летят, летят, летят...
(Осен)

ЧЕТВЕРТЫЙ ЛИШНИЙ



ГОРОСКОП НА НЕДЕЛЮ

(с 11 по 17 сентября)



Овен. Удача будет сопутствовать во многих начинаниях, будьте готовы к активному и порой напряженному режиму, используйте каждую перспективную возможность. Внутренняя энергетика притянет к вам нужных и полезных людей. Выходные проведите на природе в окружении родных и близких.



Телец. В течение недели рекомендуется выделить время для завершения неотложных дел, начатых проектов. Внимательно относитесь к своему здоровью, соблюдайте режим труда и отдыха. Этот период также сулит теплые встречи с близкими людьми.



Близнецы. Если планируете отпуск, то данный период подходит для дальнего путешествия. В ходе поездки вы не только отдохнете, но и найдете вдохновение. Ожидается знакомство с интересными людьми, общение с которыми принесет огромное удовольствие и заметную пользу.



Рак. Будут удаваться все дела, в которых необходимо общение с коллегами. В этот период будет легко склонить любого на свою сторону и ненавязчиво убедить, что именно ваше мнение является единственно правильным. В середине недели проявляйте осторожность – есть вероятность получить легкую травму.



Лев. Неделя потребует много энергии. Сможете переделать массу важных дел, решить ряд насущных проблем. Вам нужно быть эмоционально уравновешенным и не поддаваться трудностям. В выходные обязателен отдых на природе, лучше с родными.



Дева. Прекрасное время для расширения горизонтов. При этом абсолютно не важно, будет это путешествие, познавательная лекция, книга или просто беседа с интересным человеком. Вы сможете извлекать новые знания практически из всего. Появится возможность побыть в центре всеобщего внимания. В финансовом плане ожидаются убытки.



Весы. Период благоприятен для решения вопросов с недвижимостью. Ожидаются существенные финансовые поступления. На работе все спокойно, отношения с коллегами ровные. Во второй половине недели состоится важная встреча, которая положительно повлияет на ваш профессиональный и карьерный рост.



Скорпион. На Скорпионов будет оказано моральное давление. Вы переутомитесь если не устроите полную эмоциональную разгрузку. Окружающие будут стараться навязать свое мнение, чего вам непременно стоит избегать и стоять на своем.



Стрелец. Амбиции резко возрастут. С такой энергией вам и впрямь будет по силам чуть ли не горы свернуть, но старайтесь объективно оценивать свои силы и возможности. Сделаете существенный шаг на пути к достижению главной на данный момент цели. Возможно, получите повышение на работе.



Козерог. Забудьте на время о материальных вопросах. Энергию лучше направить на творчество, на что-то духовное. Общение с интересными людьми будет приносить вам огромное удовольствие. Период благоприятен для дальних путешествий.



Водолей. Период хандры. Настало время заняться здоровьем. Рисков заболеть у вас нет, но особое внимание к своему здоровью поможет избежать болезни в ближайшем будущем. В середине недели к людям творческих профессий придет хорошая идея.



Рыбы. Неделя сулит долгожданный отдых. Череда волнений закончится, наступит полное эмоциональное спокойствие. В этом ровном и неторопливом состоянии проводите время. Прислушайтесь к мнению старших, они плохого не пожелают.

AFANDI

VA UNING DO'STLARI



«Bir kuni Afandi...» deb boshlanadigan, odamni qotib-qotib kulishga, so'ng esa ma'nosini chaqishga majbur qiladigan hajman kichik, ammo mazmuni ummon qadar teran asarlar — o'zbek xalq latifalari nomoddiy madaniy merosimizning qimmatli manbasi: ularda birgina obraz orqali xalq xarakteriga xos zukkolik, hozirjavoblik, soddalik aksini topgan. Latifalarning bosh qahramoni yetti yoshdan yetmish yoshgacha har bir o'zbekka yaxshi tanish va qadr don bo'lgan Xo'ja Nasriddin.

Eng qizig'i, Afandiga o'xshash komik qahramon deyarli barcha xalqlar og'zaki ijodida uchraydi. Qozoqlar Aldarko'sani, turkmanlar Miralini, qoraqalpoqlar Umirbek laqqini, tojiklar Mushfiqiyni, turklar Karago'zni, ozarbayjonlar esa Bahlulni biz Nasriddin Afandini e'zozlaganimiz qadar sevadi, ardoqlaydi. Afandining bu birodarlari ham uning o'zi kabi nihoyatda hozirjavob, zukko, topqir va so'zga chechan.

XAYRIYAT

Afandining yaktagini xotini yuvib, dorga ilib qo'ygan edi. Afandi kechasi uyg'onib, hovliga chiqdi. Dordagi yaktagini o'g'ri gumon qilib, qo'liga kamonini oldi-da, yaktakka qarab o'q uzdi. Ertalab turib qarasa, o'zining yaktagi ekan, xursand bo'lib:

— Xayriyat, yaktakning ichida o'zim yo'q ekanman, — dedi.

ALDARKO'SA VA YO'LDOSHI



Aldarko'sa do'sti bilan sayohatga otladi. Do'sti ayyor, biroq Aldarko'sa hiylada undan-da oshib tushgan edi. Yo'lda ketishayotib, do'sti Aldarko'saga dedi:

— Meni aldab ko'r-chi!

Aldarko'sa o'ylanib turib javob berdi:

— Seni aldagan

bo'lardim-u, biroq alday oladigan kimsa uyda qolgan-da. Agar otingni berib tursang, borib uni olib kelardim.

Yo'ldoshi rozi bo'ldi. Aldarko'sa uning otiga o'tirib olgach:

— Mana, seni aldadim, — dedi.

Shunday deya u sherigini tashlab otiga qamchi bosgancha choptirib ketdi.

QANDAY QILIB KETSIN?

Bir kuni ochlik-bechoralikdan to'ygan xotini Umirbek laqqidan so'rabdi:

— Ayt-chi, xo'jam, sen juda aqli odamsan, bu kambag'allik bizni biron kun tark etarmikin o'zi?

— E! — debdi Umirbek laqqi. — U bunday yaxshi uyni yana qayerdanam topardi? Qaragin, uy bekasi yuvosh, men ham unaqa janjalkash yo ochko'z odam emasman, tinch-totuv yashaymiz, uyda baqir-chaqir bo'lmasa. U bu yerdan qanday qilib ketsin?

HURMATGA MOS JAVOB



Bag'dodlik savdogar bir kuni bozorda Bahlulni uchratib:

— Janob Bahlul, qanday mol sotib olsam, katta foyda ko'raman? — deb so'radi.

— Temir va paxta sotib ol, — deya javob berdi Bahlul.

Savdogar uning aytganini qilib, juda katta foyda qildi.

Savdogar ikkinchi marta Bahlulni ko'rganida yana so'radi:

— Ey, devona Bahlul, katta foyda qilish uchun qanaqa mol sotib olay?

— Piyoz va qovun sotib ol, — javob berdi Bahlul.

Savdogar yana Bahlulning aytganini qilib, piyoz va qovun sotib oldi, ammo o'sha yili havo issiq kelib, qovun va piyoz sasib ketdi, savdogar ularni daryoga oqizib yuborishga majbur bo'ldi. Natijada katta zarar ko'rdi.

Savdogar tezda Bahlulni qidirib topib unga:

— Bergan maslahatingdan o'rgildim, katta zarar ko'rib, qarzga botdim-ku?! — dedi.

— Birinchi marta menga janob deb murojaat qilding, olijanoblik bilan javob berdim, ammo keyingi da'fa meni devona deding, men ham devonalarcha javob qildim, — dedi Bahlul.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI IIV AKADEMIYASI QUYIDAGI IXTISOSLIK BO'YICHA OLIY TA'LIMDAN KEYINGI TA'LIM FAKULTETIGA QABUL E'LON QILADI:

12.00.01 – Davlat va huquq nazariyasi va tarixi. Huquqiy ta'limotlar tarixi;

12.00.02 – Konstitutsiyaviy huquq. Ma'muriy huquq. Moliya va bojxona huquqi;

12.00.03 – Fuqarolik huquqi. Tadbirkorlik huquqi. Oila huquqi. Xalqaro xususiy huquq;

12.00.08 – Jinoyat huquqi. Kriminologiya. Jinoyat-ijroiya huquqi;

12.00.09 – Jinoyat protsessi. Kriminalistika, tezkor-qidiruv huquq va sud ekspertizasi;

12.00.14 – Huquqbuzarliklar profilaktikasi. Jamoat xavfsizligini ta'minlash. Probatsiya faoliyati.

IIV Akademiyasi Oliy ta'limdan keyingi ta'lim fakultetiga falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayanch doktoranturaga kiruvchi (shahodatlangan xodimlar tarkibidan) yoki mustaqil izlanuvchi sifatida rasmiylashtiriluvchi talabgorlar quyidagi talablarga javob berishi lozim:

– magistr darajasi yoki ma'lumot (yuridik mutaxassislik bo'yicha) diplomga ega bo'lish;

– falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya tadqiqoti asosini tashkil qilishi mumkin bo'lgan muayyan ilmiy natijalarga, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

jurnallarda kamida bitta ilmiy maqolaga hamda ilmiy-amaliy konferensiyalar, seminarlar va tegishli ilmiy yo'nalishlar bo'yicha ilmiy ishlar to'plamlarida kamida ikkita tezisga ega bo'lishi.

IIV Akademiyasi Oliy ta'limdan keyingi ta'lim fakultetiga fan doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun doktoranturaga kiruvchi (shahodatlangan xodimlar tarkibidan) yoki mustaqil izlanuvchi sifatida rasmiylashtiriluvchi talabgorlar quyidagi talablarga javob berishi lozim:

– fan nomzodi yoki falsafa doktori (PhD) (yuridik mutaxassislik bo'yicha), unga tenglashtirilgan xorijiy mamlakatlarda olingan ilmiy darajalar;

– fan nomzodi yoki falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olgandan so'ng muhim ilmiy yutuqlarga erishish shu jumladan, fan doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya tadqiqoti asosini tashkil qilishi mumkin bo'lgan muayyan ilmiy natijalarga, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan nashrlar ro'yxatiga kiritilgan jurnallarda kamida uchta ilmiy maqolaga hamda ilmiy-amaliy konferensiyalar, seminarlar va tegishli ilmiy yo'nalishlar bo'yicha ilmiy ishlar to'plamlarida kamida beshta tezisga ega bo'lishi talab etiladi.

Hujjatlar joriy yilning 15-sentabr kundan 15-oktabr kuniga qadar phd.mininnovation.uz sayti orqali onlayn qabul qilinadi.

MUASSIS:
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI

Bosh muharrir –

polkovnik
Bernora SADIKOVA

Bosh muharrir o'rinbosarlari –

mayor Azizjon FAYZIYEV
kapitan Aziza BOHODIROVA

Mas'ul kotiblar –

Jahongir SHAROFBOYEV,
Erkin SATTOROV

Navbatchilar –

Sarvar SOBIROV
Yulya KIM

Sahifalovchilar –

Zokir BOLTAYEV
Ilhom JUMANOV
Akbar BOLTAYEV

Fotomuxbirlar –

Abu KENJAYEV
Ikrom HASANOV

TELEFONLAR:

71-231-33-88;

Faks: 71-231-40-05.

Obuna masalalari bo'yicha:

71-231-38-74;

97-420-89-24

Web-site: www.postda.uz

E-mail: info@postda.uz

ISSN 2010-5355



Tahririyat hisob raqami
h/r 23402000300100001010.

Bank kodi 00014.

O'zbekiston Respublikasi
Iqtisodiyot va moliya
vazirligi g'aznachiligi.

Shaxsiy h/v
470010860262877031101179001
STIR 200637499.

Tahririyatga kelgan qo'l-
yozma va suratlar egasiga
qaytarilmaydi.

Nashrimizdan ko'chirib bosil-
ganda manba ko'rsatilishi shart.
Gazeta tahririyat kompyuter
markazida terildi va sahifalandi.

«O'zbekiston» nashriyot-matbaa
ijodiy uyi bosmaxonasida
chop etildi.

Korxonalar manzili:
Alisher Navoiy ko'chasi 30-uy.

Gazeta O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligi
tomonidan 2020-yil 13-yanvarda
0120-raqam bilan ro'yxatga
olingan.

Buyurtma №V-5584.

Bosilish – ofset usulida.
Bichimi – A3. Hajmi – 6 bosma
taboq. 50435 nusxada chop etildi.

Obuna raqamlari:

Yakka tartibda – 180.
Tashkilotlar uchun – 366.
Bosishga topshirish vaqti – 22.00.
Bosishga topshirildi – 21.00.
Sotuvda kelishilgan narxda.

MANZILIMIZ:

100070, Toshkent shahri,
Shota Rustaveli 1-berk
ko'chasi 9-uy.

